

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**PSIXODIAGNOSTIKA VA
EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA**

fanidan

**LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARI**

Namangan -2018

“Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” fanidan laboratoriya mashg’ulotlari ishlanmasi ishchi o’quv reja va Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo’nalishlari bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2018 yil 27 martdagi 274- sonli buyrug’i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan o’quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Z.Kurbanova:

**NamDU pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o’qituvchisi**

Taqrizchilar:

S. Akbarov:

**NamDU pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o’qituvchisi**

M.Maxsudova:

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

“Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” fanidan laboratoriya mashg’ulotlari ishlanmasi pedagogika va psixologiya kafedrasining 2018 yil «27» avgustdagi “1”-sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri:

dots. M.Nishonov

Laboratoriya mashg’ulotlari ishlanmasi pedagogika fakulteti kengashining 2018 yil «30» avgustdagi 1-sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

Fakultet kengashi raisi:

dotsent T.Abdullayev

MAVZU: BILISH JARAYONLARI PSIXODIAGNOSTIKASI

1-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Diqqat psixodiagnostikasi

Maqsad: Diqqatning tanlovchanligini aniqlash

Jihoz: "Korrektura sinovi" varaqlari

Diqqatni o'rganishga yo'naltirilgan laboratoriya metodlari blankalar usulidan iborat bo'lib, ular **korrektura sinovi**, degan umumiy nom bilan ataladi. Korrektur sinovi blankalari turli stimullardan-harflar, raqamlar, geometrik shakllardan iborat bo'lishi mumkin. Tekshiriluvchining vazifasi berilgan stimulni boshqalaridan ajratib bir xil tarzda belgilashdan iborat. Diqqat tanlovchanligi aniqligi ko'rsatkichi vazifani bajarishning aniqligi koeffitsienti bilan belgilanadi. Vazifani bajarishning aniqligi koeffitsienti (Uippl formulasi bilan hisoblanadi:

$$A = \frac{N - r}{N + P}$$

bu erda N - umumiy aniqlangan stimullar soni, P-qoldirilgan stimullar soni, r- noto'g'ri aniqlangan stimullar soni. Diqqat tanlovchanligining yana bir ko'rsatkichi, tekshiriluvchi tomonidan berilgan stimulni topish uchun sarflangan vaqt (m) (T.C) dir. U bitta stimulni topishga sarflangan vaqt (tanlash vaqti deb qaraladi. Tanlash tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S = \frac{m}{T}$$

Bu tajribani o'tkazish uchun kirill alifbosidagi harflardan iborat blankalar tayyorlanadi. Har bir blankada 10 qatorga 54 tadan harf yozilib ular ichida tartibsiz holda 24 so'z (turli darajadagi qiyinlikdagi) yashiringan. Tekshiriluvchining vazifasi ana shu so'zlarni topishdan iborat. Bunda sarflangan vaqt etiborga olinadi.

B A Y O N N O M A

Tekshiriluvchining javoblari			Diqqatning xossasi		
To'g'ri (m)	Xato		Aniqlik koeffitsient i (A)	Vaqt (T), s	Tanlash tezligi (S)
	r	p			

Ishning borishi:

Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida olib boriladi va tekshiriluvchiga quyidagi ko'rsatma beriladi: «Sizga berilgan varaqda kirill alifbosidagi harflar yozilgan. Ular orasida birikmalar mavjud bo'lib, birlik, bosh kelishikdagi ot so'z turkumiga taalluqlidir. Diqqat bilan har bir qatorni ko'rib chiqing va ana shu so'zlarni topib, birinchi harfining boshidan boshlab oxirgi harfigacha tagiga chizib qo'ying. Ortiqcha harfni chizib yubormaslikka harakat qiling. Vazifani aniq va tez bajaring».

Natijani tahlil qilishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

- 1) Natija dastur blankasi bilan solishtiriladi.
- 2) Chizilgan so'zlar soni sanab chiqiladi.
- 3) qoldirilgan so'zlar soni sanaladi(p):
- 4) Noto'g'ri chizilgan so'zlar soni aniqlanadi- (r).
- 5) To'g'ri chizilgan so'zlar soni (m) aniqlanadi.
- 6) Uippl formulasi bo'yicha A ni hisoblanadi.
- 7) Tanlash tezligi hisoblanadi (S).
- 8) Barcha tekshiriluvchilar uchun o'rtacha ko'rsatkich aniqlanadi.

Ana shu ko'rsatkichlarga asosan diqqatning tanlovchanligining individual xususiyati tahlil qilinadi.

Diqqat tanlovchanligini aniqlash uchun qo'zg'atuvchi material:

KRSNDTSKOINOTPRFJXSDO'STLIKLKNSTFPRFJXSSHXJBKRKRSNDTSTFPR
KRPSTBVXJTSVCHSHTAFACKURSTLDKXJBTONGSHXJBKNDTSTFPKDTSKJXCHMU
VAFFAQIYATKRPSTBVXJTSVCHSHGSHXJBKSAYYORAXJBKNDTSTFDTSKJXEKOL
GIYAPDJKXSBVNTSCHYJTA'LIMRSTLDKXJBTPRKJEXVTSTSCHMARTJVPRXE
JKXSBVDJKISTIQBOLTSCHRVNKLJDJXO'VBNAFOSATXJBKNDTSTFDKOMET
AXBKNDFTSKJXXARAKTERTKRPSTBVXTKRPSTBVXBAXTTXJBKNKOMIL
DKRPLEVOLYUTSIYATSRCHKTVJXIRSIYATXKRPGLDVXJBTPRDKXJBKRJBNAV
BVXJTSVCHSHGSHXPSIXOLOGIYATSRCHKTVJXCHANGTXKRPGLDXJBTPRDKRPLD
XJKBDXOTIRAPDJKXSBVNTSCHYJTRSTLDKLDVXJBTPDJKXSBVNTSCHVLOY
IHAKRSNDTSKRPSTBRASHKMRSTLDKXJBTPRKJEXVTSTSCHBAHOXKRPGLDX

Diqqatning barqarorligi va kontsentratsiyasini o'rganish

Maqsad: Diqqatning barqarorligi va kontsentratsiyasini aniqlash

Jihoz: "Korrektura sinovi" varaqlari, sekundomer.

Diqqatning barqarorligi va to'planishini o'rganish ishlab chiqarish amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ixtiyorsiz diqqat barqarorligini o'rganish uchun apparatura metodlaridan foydalaniladi, ixtiyoriy diqqatni o'rganishda esa, albatta, shaxsning faolligi hisobga olinadi. Bunda eng keng tarqalgan usul korrektura sinovidir. Korrektura sinovini Burdon tomonidan ishlab chiqilgan va Anfimov tomonidan modifikasiya qilingan variantidan keng foydalaniladi. Diqqat barqarorligining ko'rsatkichi tanlash tezligining o'zgarishidir. Bu metodda stimul 1 ta emas, bir nechta (m_n), o'z navbatida vaqt oraliqlari ham bir nechta (T_n).

Butun tekshirish mobaynidagi tanlash tezligining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

$$T_1 \dots T_n \quad \frac{m_1}{T_1} + \frac{m_n}{T_n}$$

Diqqat kontsentratsiyasining shartli ko'rsatkichi (K_1 va K_N) vazifani bajarish aniqligi koeffitsientini – Ta'sir bilan va Ta'sirsiz koeffitsientning o'zaro

munosabati aniqlaydi (A_{t-li} li A_{t-siz}) $K = \frac{A_n}{A_{\sigma n}}$

Aniqlik koeffitsienti Ta'sir bilan va Ta'sirsiz holatlar uchun ham Uippl formulasi bilan hisoblanadi.

Tadqiqot o'tkazishdan oldin Burdon-Anfimovning korrektur sinovi blankasi tayyorlanadi. Kirill alifbosidagi harflar 30 qatorga 40 tadan yozib chiqiladi.

Tekshiriluvchi ana shu harflar ichidan ko'rsatilgan harflarni chizib chiqadi. "CHizing" degan buyruqdan so'ng qaysi harfda to'xtagan bo'lsa, usha joyga vertikal chizib chiqadi. 30 sekundlik oraliqda Tekshiruvchi belgilab boradi, 3-7 oraliqda 15 sekund mobaynida ovoz chiqarib har xil harflarni aytib turadi. Bu tadqiqot 5 minutga mo'ljallangan.

B A Y O N N O M A:


Vaqt oralig'i	Fon	Javoblar			Diqqatning xossalari			
		To'g'ri (m)	Xato		Tanlash tezligi (S)	Aniq- lik koeffitsi enti (A)	O'rtach a qiymat (M)	Konsen tratsiya koeff. (K)
			r	P				
1	Ta'sirsiz							
2	Ta'sirsiz							
3	Ta'sirli							
4	Ta'sirsiz							
5	Ta'sirsiz							
6	Ta'sirsiz							
7	Ta'sirli							
8	Ta'sirsiz							
9	Ta'sirsiz							
10	Ta'sirsiz							

Ishning borishi

Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida olib boriladi. Tekshiriluvchiga quyidagicha ko'rsatma beriladi: «qo'lingizdagi Burdon-Anfimov jadvalini har bir qatorini chapdan o'ngga tomon diqqat bilan ko'rib chiqing. Jadvaldagi «A» va «K» harflarini vertikal chiziq bilan o'chiring. Iloji boricha aniq va tez ishlashga harakat qiling. «Chizing» degan buyruqdan so'ng, qaysi harfga kelgan bo'lsangiz o'sha harfdan so'ng uzun chiziq chizib, ishlashni davom ettiring. «To'xtang» degan buyruqqacha vazifani bajarishda davom etishingiz kerak».

Natijalarni tahlil qilishda quyidagilarga asoslaniladi:

- 1) natija dastur bilan solishtiriladi.
- 2) korrektura blankasidagi vaqt oraliqlari aniqlanadi: ($T_1 \dots T_{10}$)
- 3) har bir vaqt oralig'i uchun to'g'ri javoblar aniqlanadi (m)
- 4) har bir vaqt oralig'i uchun tanlash tezligi $S(S_1 \dots S_{10})$ aniqlanadi.
- 5) grafik tuzib chiqiladi, diqqat barqarorligining shartli dinamikasi deb atalgan grafikning absissa o'qiga 30-sekundlik oraliqdagi ($T_1 \dots T_{10}$) ordinata o'qiga tanlash tezligi ($S_1 \dots S_{10}$) qo'yiladi;
- 6) ta'sirgacha bo'lgan diqqat aniqlik koeffitsienti hisoblanadi: (A_{t-siz} va A_{t-li})
- 7) diqqat konsentratsiyasi (K^1 va K^n) hisoblanadi;
- 8) diqqatning barqarorligi va konsentratsiyasi haqida xulosa chiqariladi.



Diqqatning barqarorligi va kontsentratsiyasini o'rganish uchun
Burdon-Anfimov jadvali

CXAVSVSOULK	DERDNKPAUVPALDPKAORDTBLMAKDR
XRPKOALDRAX	ITAKTVORPKADOLSGNEXAKVSCFMTCC
YTUKEAGSAZX	JKLORPAVFKAMITABSKAXSAVLUTAK
XZHKATRPAKL	RNAKTAKVAXLORIMAKLTYTUDHKFOV
DXAVSVSOULK	DERDNKPAUVPALDPKAORDTBLMAKDR
XRPKOALDRAX	ITAKKVORPKADOLSGNEXAKVSCFMTB
YTUKEAGSAZX	JKLORPAVFKAMITABSKAXSAVLUTAK
XZHKATRPAKL	RNAKTAKVAXLORIMAKHTYTYTUDHKFOV
CXAVSVSOULK	DERDNKPAUVPALDPKAORDTBRMAKDR
XRPKOALDRAX	ITAKTVORPKADOLSGNEXAKVSCFMTCC
YTUKEAGSAZX	JKLORPAVFKAMITABSKAXSAVLUTAK
XZHKATRPAKL	RNAKTAKVAXLORIMAKRTYTYTUDHKFOV
YTUKEAGSAZX	JKLORPAVFKAMITABSKAXSAVLUTAK
XRPKOALDRAX	ITAKTVORPKADOLSGNEXAKVSCFMTCC
YTUKEAGSAZX	JKLORPAVFKAMITABSKAXSAVLUTAK
D _X AVSVSOULK	DERDNKPAUVPALDPKAORDTBUMAKDR
SYUVAPRLONG	LDJRIMVXRPKOALDRAX ITAKSVOPA
FKAMITABSKAXSAVLUSAKhGNEXAKVSHFMTKROD	JXV
K DERDNKPAUVPALDPUKEAGSAZX	JODPKADMPTAT
KAMITABSKAXSAVLUYTRYTUKEAGSAZX	JKLORPAVU
XAVSVSOULK DERDNKPAUVPALDPUKEAGSAZX	JPRT
TFKAMITABSKAXSAVLUSAKUKEAGSAZX	JAKTVOPAF
CFSXAVSVSOULITAKTVOPKXAVSVSOULITAKTVOPPS	
ITAKTVOPKAZX	JKLORPAVFKAMITABSXAKVSCFJOD
PAUVPALDPKAORDTBLFKAMITABSKAXSAVLUTAKPRO	
VAXLORIMAKKTYTUFVAXLAORDTBXMAKDRORPKADRE	
KAORDTBXMAKDRXAKVSCFVAXLORIMAKMTYTUAVKEN	

U K E A G S A Z X J A K T A K V A Y Y T U K E A G S A Z X J K L O R P A Y T
K D E R D N K P A U V P A L D P V K A O R D T B J M A K D R I T A K T V O P J
A K T A K V A O R P K A D P E R O N A Z X J K L O R P A V F K A M I T A B S E

2-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Xotirani o'rganish

Maqsad: Mantiqiy va mexanik esda qoldirish o'rtasidagi tafovutni aniqlash.

Jihoz: Ma'no jihatidan bog'langan va bog'lanmagan juft so'zlar to'plami.

Ishning borishi:

Tekshirish 2 bosqichda olib boriladi.

1-bosqich. Tekshiruvchi tekshiriluvchiga 1-qatordagi 15 juft so'zni (har bir juft so'z orasida 5 sekund tanaffus bilan) o'qib beradi. O'qib bo'lgandan so'ng 10 sekund tanaffus qilib, tekshiriluvchi o'zi eshitgan so'zlarni qog'ozga yozadi.

Tavsiya etiladigan so'zlar to'plami:

Birinchi qator

qo'g'irchoq – o'ynamoq

tovuq – tuxum

qaychi – qirqmoq

ot – arava

kitob – o'qituvchi

kapalak – chivin

shcho'tka – tish

baraban – o'quvchi

qor – qish

xo'roz – qichqirmoq

siyoh – daftar

sigir – sut

parovoz – haydamoq

nok – kompot

chiroq – oqshom

Ikkinchi qator

qo'ng'iz – stul

taroq – yer

kompas – yelim

qo'ng'iroq – o'q

chittak – singil

gultuvak – tramvay

dori – divan

tosh – shamol

botinka – samovar

grafin – olmoq

gugurt – yilqi

dengiz – qirg'ich

shlyapa – asalari

baliq – yong'in

arra – tuxum

Mantiqiy xotiraning hajmi.

Birinchi qatordagi so'zlarning soni (№)	Esda qoldirilgan so'zlar soni (m)	Mantiqiy xotira koeffitsiyenti (K)

Natijalarni tahlil qilish.

Tavsiya qilingan so'zlar bilan tekshiriluvchining esda qoldirib yozgan so'zlarini solishtiriladi va mantiqiy xotiraning koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K = \frac{m}{N} \cdot 100\%$$

Bunda K – xotira ko'effitsiyenti, m – to'g'ri esda qoldirilgan so'zlar soni, N – tavsiya etilgan so'zlar soni.

Ikkinchi bosqich.

Bunda ham xuddi birinchi bosqichdagidek ish ko'riladi. Faqat tekshiruvchi ikkinchi qatordagi 15 juft so'zlarni (har bir juft oralig'ida 10 sekundlik tanaffus bilan) o'qiydi. Oxirida yana 10 sekund tanaffusdan so'ng tekshiriluvchi esda olib qolgan so'zlarini yozadi va tavsiya qilingan so'zlar bilan esda qoldirilgan so'zlar taqqoslanib xotira ko'effitsiyenti birinchi bosqichdagi kabi hisoblab chiqiladi, hamda jadvalda aks ettiriladi.

Mexanik xotiraning hajmi.

Ikkinchi qatordagi so'zlarning soni (№)	Esda qoldirilgan so'zlar soni (m)	Mexanik xotira ko'effitsiyenti (K)

Har ikki bosqich natijalari asosida mantiqiy va mexanik xotiraning samaradorligi haqida xulosa chiqariladi.

Xotiradagi individual xususiyatlarni o'rganish.

Inson xotirasining tiplari sof holda juda kam uchraydi. Ko'p hollarda ular bir-biri bilan qo'shilib ketgan bo'lib, ulardan biri boshqasiga nisbatan yetakchilik qilishi mumkin.

Ana shu yetakchi xotira tipini aniqlash uchun qatorning ushlab qolingan a'zolari metodidan foydalaniladi. Bu metodning mohiyatiga ko'ra tekshiriluvchiga qator so'zlar o'qib beriladi, so'zlardan esda qoldirilganlarini qayta esga tushirib aytib berishi kerak. Xotirada qoldirilgan so'zlar soni (m) ni hisoblab, qayta esga tushirish ko'effitsiyentini (K) topish mumkin.

$$K_{\text{э.т}} = \frac{m}{N} \cdot 100\%$$

Yetakchi xotira tipini aniqlash uchun qo'zg'atuvchi material turli usulda ko'rsatilishi mumkin. (ko'rish, eshitish, yoki aralash). Tekshiruvchi materialni ko'rsatishi, o'qib berishi, yoki tekshiriluvchiga materialni o'qib berilayotganda pichirlab takrorlab turishi, havoda qo'li bilan yozib turishiga ham ruxsat berilishi mumkin. Har bir sinovdan so'ng tekshiriluvchi eslab qolgan so'zlarini tartibidan qat'iy nazar varaqqa yozib chiqadi.

Tajriba natijalarini tahlil qilishda qayta esga tushirish ko'effitsiyenti taqqoslanib, xotiraning yetakchi tipi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ishning borishi:

Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida o'tkaziladi va u to'rt bosqichdan iborat. Har bir bosqich o'rtasida 10 minutdan tanaffus qilinadi.

Birinchi bosqich.

Tekshiruvchi tekshiriluvchiga soʻzlarni oʻqib beradi. Har bir soʻz oʻrtasida 5 sekundlik oraliq mavjud boʻlib, qator oʻqib boʻlingandan soʻng tekshiriluvchi bayonnomaga esda olib qolgan soʻzlarini yozadi.

Tekshiriluvchiga koʻrsatma: «Men sizga hozir bir qator soʻzlarni oʻqib beraman. Ularni yaxshilab diqqat bilan eslab qoling. Men bergan buyruqdan soʻng esda qoldirilgan soʻzlarni bayonnomaga yozing».

Ikkinchi bosqich.

Tekshiruvchi tekshiriluvchining oldiga 10 ta soʻzni qoʻyadi va unga 10 sekund davomida soʻzlarni oʻqib chiqishga ruxsat beradi.

Tekshiriluvchiga koʻrsatma: «Oldingizda soʻzlar yozilgan varaq turibdi (teskari holda). Mening buyrugʻimdan soʻng 10 sekund davomida uni olib oʻqiysiz, oʻqishni tugatib, yana uni joyiga qoʻyasiz va bayonnomaga eslab qolgan soʻzlaringizni yozasiz».

Uchinchi bosqich.

Tekshiruvchi tekshiriluvchining oldiga yangi soʻzlardan iborat boʻlgan varaqlarni qoʻyadi va unga hamma soʻzlarni ovoz chiqarib oʻqishga ruxsat beradi. Tekshiriluvchi ularni pichirlab oʻqiydi va bayonnomaga esda qoldirgan soʻzlarini yozadi.

Tekshiriluvchiga koʻrsatma: «Oldingizda soʻzlar yozilgan varaq turibdi. Mening buyrugʻimdan soʻng siz uni olib men bilan birga pichirlab oʻqishingiz kerak. Soʻng eslab qolgan soʻzlaringizni bayonnomaga yozasiz».

Toʻrtinchi bosqich.

Tekshiruvchi ovoz chiqarib soʻzlarni oʻqib beradi, tekshiriluvchi uning orqasidan har bir soʻzni qaytaradi va harakat yordamida ularni havoda yozib turadi.

Tekshiriluvchiga koʻrsatma: «Hozir men sizga bir qator soʻzlarni oʻqib beraman. Ularni yaxshilab eslab qolish uchun qaytarishingiz, havoda yozishingiz mumkin. Buyrugʻimdan soʻng eslab qolgan soʻzlaringizni bayonnomaga yozasiz».

B A Y O N N O M A:

Tajriba bosqichi	Esda qoldirish usuli	Javoblar		K (%)
		Barchasi	Toʻgʻrisi	
I	Eshitish			
II	Koʻrish			
III	Harakat			
IV	Aralash			

Tavsiya etiladigan soʻzlar toʻplami

1-bosqich uchun

tanbur
saxovat
meros
vatan
soʻzana
iqtisod
suhbat
gulzor
xotira

2-bosqich uchun

dengiz
baxt
tabiat
choynak
dazmol
istiqlol
isteʼdod
jadval
madaniyat

qog'oz

3-bosqich uchun

koinot

navbahor

marafon

sanoat

telefon

kengash

hissiyot

deraza

mandarin

daftar

diqqat

4-bosqich uchun

ma'ruza

sayohat

qalam

sadoqat

tajriba

Buxoro

tahlil

sovrin

traktor

muhabbat

Qayta esga tushirish koeffitsiyentining foizdagi ifodasiga ko'ra xotira tipi haqida xulosa chiqariladi.

3-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Idrokning ko'chuvchanlik xususiyatini o'rganish

Maqsad: Vaqtni idrok qilishdagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish.

Jihoz: Sekundomer yoki sekund strelkali soat.

Ishning borishi: Tekshiriluvchi 3, 5, 10, 17 sekundga to'g'ri keluvchi vaqt birliklarini aniqlashi lozim. Tekshiruvchi stolning ustiga qalamning orqasi bilan urib, vaqtning boshlanishi va tugash nuqtalarini belgilaydi.

Ko'rsatma: «Hozir stol ustiga qalam bilan urib vaqt boshlanganini bildiraman. Yana bir marta stol ustiga qalam bilan urganimga qadar qancha vaqt o'tganligini baholashingiz kerak. Bunda turli vositalardan foydalanish va hisoblab turish ta'qiqlanadi».

B A Y O N N O M A:

Tajriba raqami	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi	Tekshiriluvchining ko'rsatmasi	Chamalab aytilgan vaqt bilan real vaqt o'rtasidagi farq
1	3		
2	5		
3	10		
4	17		

Natijani tahlil qilish:

Vaqtni idrok qilishning aniq koeffitsiyenti S topiladi.

$$C = \frac{A \cdot 100}{B}$$

Bunda A – sekund hisobida tavsiya qilingan vaqt bilan tekshiriluvchi ifodalagan vaqt o'rtasidagi farq. B – tadqiqotchi tomonidan tavsiya qilingan vaqt bo'lagi. S ning foizdagi ifodasiga ko'ra vaqtni idrok qilishning aniqligi haqida xulosa chiqariladi.

4-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Tafakkur psixodagnostikasi

Maqsad: Mantiqiy va matematik tafakkurning taraqqiyot darajasini aniqlash

Jihoz: Ayzenk testining B. Shoumarov, N.A. Sog'inov va G.I. Niyozmetovalar tomonidan moslashtirilgan varianti.

Ko'rsatma: Test topshiriqlarini bajarish uchun 30 minut vaqt beriladi.


Bir topshiriqni bajaraman deb uzoq to'xtalib qolmang. Balki siz noto'g'ri o'ylayotgan bo'lishingiz mumkin, shuning uchun bunday hollarda navbatdagi topshiriqqa o'tganingiz ma'qul. Shuni nazarda tutingki, topshiriqlar asta-sekin murakkablashib boradi. Har qanday odam bu erdagi topshiriqlarni ma'lum bir qisimigina echa oladi, lekin hech kim yarim soat ichida hamma topshiriqlarni echa olmaydi.

Topshiriqning javobi bitta raqam, harf yoki so'zdan iborat bo'ladi. Ba'zan bir necha imkoniyatdan birini tanlashingizga, ba'zan javobni siz o'zingiz o'ylab topishingizga to'g'ri keladi. Javobni varaqda ko'rsatilgan joyga yozing. Agar siz topshiriqni bajara olmasangiz-tavakkal javobni yozish kerak emas. Agar siz biron-bir fikrga kelsangiz-u, ikkilansangiz, unda shu javobni yozib qo'ying.

1. Nuqtalar tushirib qoldirilgan so'z tarkibidagi harflar miqdorini bildiradi. Masalan, tushirib qoldirilgan so'z to'rt harfdan iborat ekanligini bildiradi.

2. Ba'zi bir topshiriqlarni bajarish o'zbek alfavitidagi harflardan foydalanishni taqozo qiladi.

1. Quyidagi shakllardan kerakligini (munosibini) tanlang.




2. Nuqtalar o'ri
bo'lib xizmat qiladiga
OY . . . DOR

ikkinchi so'zning boshi

3. Anagrammalarni yeching va mazmun jihatidan boshqa so'zlardan farqlanadigan ortiqcha so'zni ajratib ko'rsating.

SH Q Q O I
A L I Y O P
R A F D A T
O Y K A N C H

1. Yetishmayotgan sonni yozing




8. Anagrammalarni eching va mazmun jihatidan boshqa so'zlardan farq qiladigan ortiqcha so'zni ajratib yozing

R A A C H
K A T E R
T A K B A M
Y O G ' Q O N


9. Yetishmayotgan harfni yozing.

SH X S O K ?

10. Raqamlab qo'yilgan shakllardan keragini tanlang.




11. Raqamlangan oltita shakldan kerakligini tanlang.



12. Birinchi so'zning oxiri va ikkinchi so'zning boshi bo'la oladigan so'zni toping.
IQ ... TA

13. Qoldirib ketilgan raqamni toping




14. Yetishmayotgan

4	9	20
8	5	14
10	3	?


15. Yetishmayotgan sonni toping.

16	27	43
29	...	56

16. Yetishmayotgan harflarni yozing.



17. Raqamlab qo'yilgan shakllardan keragini tanlang.



18. Raqamlab qo'yilgan shakllardan keragini tanlang.



19. Tushirib qoldirilgan sonni toping

6 11 ? 27

20. Tushirib qoldirilgan sonni toping

12 56 16
17 ... 21

21. Tushirib qoldirilgan so'zni toping

BAHAM MANA BADAN

ARIZA ZAFAR

22. Birinchi so'zning oxiri va ikkinchi so'zning boshi bo'la oladigan so'zni toping

KUL ... ISHMAND

23. Anagrammalarni yeching va mazmun jihatidan boshqa so'zlardan farq qiladigan ortiqcha so'zni ajratib yozing

NODTOS

SAIQS

AQQIY

YAIKOH

24. Nuqtalar o'rniga shunday bir so'zni qo'yinki u qavsdan tashqaridagi so'zlar anglatgan ma'noni bildirsin.

SURAT TASVIR


25. Tushirib qoldirilgan harfni yozing.

A G J

G Z L

Z M ?

26. Qoldirib ketilgan harflarni yozing



27. Raqamlab qo'yilgan oltita shakllardan keragini tanlang.



28. Raqamlab qo'yilgan shakllardan keragini tanlang.



29. Raqamlab qo'yilgan shakllardan keragini tanlang.



30. Qoldirib ketilgan so'zni toping
KALTA / ALLA/ LAMPA
BANDA /.... / OYLAR

31. Nuqtalar o'rniga shunday so'zni yozingki, u qavsdan tashqaridagi so'zlar mazmunini to'ldirsin va to'la bir fikrni anglatsin.

mehnat quroli / / inson tanasining bir qismi .

32. Tushirib qoldirilgan so'zni toping

INSON NIDO OZODA

OSMON /..../ BOTIR

33. Anagrammalarni yeching va ortiqcha so'zni ajrating

ERDOV

ZEDARA

IDPO'P

SUTUN

34. Qoldirib ketilgan raqamni yozing.

1 8 27 ?

35. Qoldirib ketilgan raqamni va harfni yozing.

1	V	5	?
A	3	D	?

36. Nuqtalar o'rniga shunday so'zni yozingki, u qavsdan tashqaridagi so'zlar mazmunini to'ldirsin va Har ikki tomondan o'zicha aloHida bir fikrni anglatadigan gap hosil qilsin.

SHE'R VAZNI//TANANING BIR QISMI

37. Tushirib qoldirilgan so'zni toping

DAVRA /VAQT/TAROQ

SHAHAR /..../OQLOV



38. Raqamlab qo'yilgan oltita shakllardan keragini tanlang.



39. Raqamlab qo'yilgan oltita shakllardan keragini tanlang.



40. Raqamlab qo'yilgan to'rtta shakldan keragini tanlang.



**G.Y. AYZENK TESTI UCHUN
JAVOB VARAQASI**

Familiyasi_____ismi_____

Tug'ilgan yil, oy, kun._____

Tadqiqot o'tkazilgan vaqt_____

1	2	3		
4	5		6	7
8		9	10	11
12	13	14	15	
16		17	18	19
20	21		22	
23		24		25
26		27	28	29
30		31	32	
33		34	35	
36	37	38	39	40

Test javoblari

1. 4

2. DIN

3. DAFTAR (Boshqalar esa hammasi idish tovoqlar : qoshiq piyola choynak)

4. 11(derazadagi raqamlar yig'indisidan poldagi raqamlar ayirmasi)

5. Razm (qoldirib ketilgan so'zning birinchi harfi-bu oldingi so'zning oldingi harfi qoldirib ketilgan so'zning ikkinchi harfi- oldingi so'zning to'rtinchi harfi qoldirib ketilgan so'zning uchinchi harfi-navbatdagi so'zning uchinchi harfi qoldirib ketilgan so'zning to'rtinchi harfi-bu navbatdagi so'zning to'rtinchi harfi)

6. 21 (qavsdan tashqaridagi hamma raqamlar qo'shiladi.)

7. 3 (Har bir raqamga 2 qo'shib yig'indini 2ga bo'lsa navbatdagi raqam kelib chiqadi : $4+2=6$, $6/2=3$)

8. Maktab (boshqa so'zlar daraxtlarni bildiradi archa, terak, yong'oq)

9. 3 (harflar alfavitga teskari tartibda quyidagicha ketma-ketlikda joylashgan: ikkita harfdan keyin ikkinchisi, uchta harfdan keyin uchinchisi)

10. 6 (aylana, uchburchak va kvadrat ham ichki chizilgan, ham tashqi chizilgan bo'lishi, qora yoki oq rangda shtrixlangan bo'lishi mumkin bu belgilarning xar bir qatori yoki ustun bo'yicha faqat bir martagina qayd qilinadi)

11. 5 (to'g'ri to'rt burchak ichida chizilgan liniyaning qandayligiga ko'ra farqlanadigan uchta shakl va uchta kichik shaklcha-xoch, romb va aylana mavjud har bir to'g'ri burchakda ikkitadan shunday shakillar bor.

12. Bol

13. 54 (Aylananing chap yarmidagi raqamlar o'ng yarmidagi raqamlardan uch marta katta yoki diagonal bo'yicha o'ng tomondagi raqamlar chap tomondagilardan uch marta katta)

14. 11 xar bir qatordagi uchinchi raqam - birinchi raqamni yarmi va ikkinchi raqamning ikkilangan yig'indisiga teng)

15. 27 (qavs ichidagi son qavsdan tashqaridagi sonlar ayirmasiga teng)

16. A va R (jamg'arma)

17. 2 (aylana chiziqsiz bo'lishi ham mumkin, tik chiziqli yoki ko'ndalang chiziqli bo'lishi ham mumkin kichik aylanalar esa uch holatdan birida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari ular shtrixlangandir)

18. 2 (har bir ko'ndalang qatordagi uchinchi shakl shunday shakldagi elementga, belgiga egaki, u o'z qatoridagi shakllar uchun umumiy bo'lmagan elementlardan tashkil topadi.)

19. 18 (2,3,4,5 raqamlarini kvadratga ko'tarib har safar ularga ikki qo'shib boriladi)

20. 76 (qavsdan tashqaridagi sonlar yig'indisi ikkilangani)

21. ARRA (qoldirib ketilgan so'zning birinchi harfi-oldingi so'zning oxirgi harfidir, qoldirib ketilgan so'zning ikkinchi harfi-oldingi so'zning ikkinchi harfi, qoldirilgan so'zning uchinchi harfi bu navbatdagi so'zning beshinchi harfi, qoldirib ketilgan so'zning to'rtinchi xarfi bu navbatdagi so'zning to'rtinchi xarfi)

22. DON

23. QAYIQ (boshqa so'zlar badiiy asarlar turlari : doston, xikoya, qissa,)

24. RASM

25. S (qatorlar alfavit bo'yicha tuzilgan bo'lib mos ravishda 2,3,4 tadan harf qoldirib yoziladi)

26. U va A (muxokama)
27. 2 (3 tipdagi asosiy shakllar mavjud ularning Har birida “Q”, « », « » “x” bor)
28. 1 (3 turdagi gultuvak, 3 turdagi bant va 3 turdagi gul shakllari mavjud. Gultuvak oq, qora yoki shtrixlangan bo’lishi mumkin. Shu belgilarning har bir qator yoki ustunda faqat bir marta bo’ladi)
29. 1 (tashqariga qaragan tishlar, Q1 bilan hisoblanadi, ichkariga qaragan tishlar –1 bilan hisoblanadi. Har bir ko’ndalang qatordagi oxirgi shakl oldingi ikki shakl yig’indisi deb qaraladi 4-2q2 –1Q5q4)
30. ANOR (tushirib qoldirilgan so’zning birinchi va ikkinchi harflari-bu mos ravishda oldingi so’zning beshinchi uchinchi harfidir, tushirib qoldirilgan so’zning uchinchi va to’rtinchi harflari esa mos ravishdagi navbatdagi so’zning birinchi va beshinchi harfidir)
31. KURAK
32. NOIB (tushirib qoldirilgan so’zning birinchi va ikkinchi xarflari-bu mos ravishda oldingi so’zning beshinchi va birinchi harflari, tushirib qoldirilgan so’zning uchinchi va to’rtinchi harflari esa-bu mos ravishda navbatdagi so’zning to’rtinchi va birinchi xarfidir)
33. DO’PPI (qolgan so’zlar uy qismlarini bildiradi devor, deraza, ustun)
34. 64 (1,2,3,4 raqamlarining kubi)
- 35.
- | |
|---|
| J |
| 7 |
- Harflar alfavit bo’yicha surat va maxrajida bittadan harf qoldirib kelinyapti. Sonlar esa shu harflar alfavitida qanday joylashgan bo’lsa o’sha o’rinni bildiradi.
36. BARMOQ.
37. HAVO (tushirib qoldirilgan so’zning birinchi va ikkinchi harflari mos ravishda oldingi so’zning uchinchi va ikkinchi harflari, tushurib qoldirilgan so’zning uchinchi va to’rtinchi harflari navbatdagi so’zning beshinchi va birinchi harflari dir)
38. 1 (HAR bir qatordagi va har bir ustunda 3 ta turli xil koptoklar, boshning uch shakli , uch shaklda oyoq kiyimi va qo’lning uch holati qayd etilyapti)
39. 6(bunda yubkalarning etaklarning 3 xil bichimi ,fasoni, qo’lning 3 xolati va oyoq kiyimlarining 3 xili mavjud)
40. 1(har bir qatorda ikkinchi va uchinchi shakllarda birinchi shaklning 90⁰ darajaga burilgan holatdagi bittadan elementi bor)

5-laboratoriya mashg’uloti

Mavzu: Xayolni o’rganish metodlari

Maqsad: Tasavvurlarning yorqinligi va aniqligini baholash.

Jihoz: D. Marks so'rovnomasi

Tasavvurlarni yorqinligi – aniqligini D. Marks so'rovnomasidan foydalanib baholanadi. Mazkur so'rovnomada tasavvurning yorqinligi – aniqligi 5 balli tizimda baholanadi.

Baholash shkalasi:

5 ball – tasavvur idrok obrazi kabi aniq, yorqin va sof holda.

4 ball – tasavvur aniq, yorqin, tiniq.

3 ball – tasavvur o'rtacha aniqlikda va yorqinlikda.

2 ball – tasavvur noaniq, xira.

1 ball – tasavvur umuman mavjud emas, faqat predmet haqida o'ylaydi.

Ishning borishi:

Tajriba boshida tekshiruvchi tekshiriluvchiga quyidagicha ko'rsatma beradi: «Ushbu tadqiqotning maqsadi sizda paydo bo'lgan tasavvurlarning yorqinligi va aniqligini baholashdan iborat. So'rovnoma topshiriqlari sizda muayyan tasavvur hosil qiladi. Berilgan shkalaga asoslanib, hosil bo'lgan tasavvurlarning yorqinligi va aniqligini baholashingiz kerak. Tasavvurni bu ob'yekt haqidagi bilimlar bilan aralashtirib yubormang. Siz ob'yektni fikran ko'rishingiz va uning yorqinligi va aniqligini baholashingiz kerakligini unutmang».

1. Siz tez-tez ko'rib turadigan yaqinlaringiz, do'stlaringizdan biri haqida o'ylang. Fikran shu kishi qarshingizda turibdi deb tasavvur qiling. Quyidagi savollarga asoslanib, tasavvurlarning yorqinligi, aniqligini baholang.

Shu kishining yuzi, boshi, yelkalari, tanasini aniq tasavvur qiling.

Shu kishiga xos bo'lgan bosh va tananing holatini (poza) tasavvur qiling.

Shu kishining gavdasini tutishi, yurishi, qadam tashlashini tasavvur qiling.

Shu kishining kiyimlari va uning rangini tasavvur qiling.

2. Quyosh chiqishidagi quyidagi holatlarni tasavvur qiling va shkala bo'yicha baholang.

Quyosh osmonning bir chetidan asta ko'tarilmoqda.

Quyosh moviy osmonda turibdi.

Quyosh ko'tarilgan, lekin osmonda bulutlar bor. Bir tomonda esa chaqmoq chaqmoqda, momoqaldiraq bo'lyapti.

Quyosh turibdi, osmonda kamalak bor.

3. O'zingiz tez-tez kirib turadigan magazinni tasavvur qiling va shkala bo'yicha baholang.

Ko'chaning qarama-qarshi tomonida turib, magazinni to'laligicha tasavvur qiling.

Tasavvur qiling: siz eshikka yaqinlashayapsiz, uning rangi, hajmi va boshqa qismlari qanaqa?

Magazin vitrinasini undagi mahsulotlar bilan birgalikda tasavvur qiling.

Tasavvur qiling: siz magazinga kirdingiz, peshtaxtaga yaqinlashdingiz, sotuvchi sizga mahsulot va qaytim beryapti. Uning qo'llari qanaqa?

4. Daraxtlari, tog'lari, ko'li bilan birgalikda qishloq manzarasini tasavvur qiling. Uzun landshaftini butunligicha tasavvur qiling.

Daraxtlar, ularning rangi va hajmini tasavvur qiling.

Ko'lining rangi va hajmini tasavvur qiling.

Tasavvur qiling: shamol turdi, daraxt yaproqlari shovullaydi, ko'lda to'lqinlar paydo bo'ldi.

Har bir tekshiriluvchi uchun alohida bayonnoma shakli tayyorlanadi.

B A Y O N N O M A:

So'rovnomadagi topshiriq raqami	Ball
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	
6.	
7.	
8.	
9.	
10.	
11.	
12.	
13.	
14.	
15.	
16.	
O'rtacha arifmetik qiymat – M	
Dispersiya – D	

Natijalar tahlili:

Tekshiruvchi ballarni bayonnomaga qo'yadi. So'ngra barcha natijalar yig'indisi hisoblanadi. Umumiy yig'indi sub'yektning tasavvur qila olish qobiliyati ko'rsatkichi hisoblanadi. U qanchalik ko'p bo'lsa, tasavvur shunchalik yorqin bo'ladi.

Tekshiriluvchining o'rtacha ballari (M) hisoblanadi va guruhdagi o'rtacha arifmetik qiymatdan qanchaga chetlashgani, dispersiya (D) aniqlanadi.

6-laboratoriya ishi

MAVZU: Nutqni o'rganish metodlari

Maqsad: Nutqiy assotsiativ bog'lanishlarni o'rganish.

Jihoz: So'zlar to'plami, sekundomer.

Ishning borishi:

Tajriba guruh sharoitida yoki yakka tartibda o'tkazilishi mumkin. Talabalar ikki guruhga bo'linishadi.

Birinchi guruh – tekshiruvchilar, ikkinchi guruh esa – tekshiriluvchilar bo'ladi.

Tekshiriluvchiga quyidagicha ko'rsatma beriladi: «Sizga tavsiya etilayotgan qo'zg'atuvchi so'zga nisbatan miyangizga kelgan birinchi so'zni varaqqa yozing».

Tekshiriluvchiga qo'zg'atuvchi 30 ta so'z o'qib beriladi, tekshiruvchi unga berilgan so'zga javoban miyasiga kelgan so'zlarni bayonnomaga yozib turadi.

Qo'zg'atuvchi		Javoblar		Mantiqiy reaksiyalar	
Raqam	So'z	So'z	Vaqt (sek)	Markaziy	Periferik
1	Sevgi				
2	Do'stlik				
3	Mehr				
4	Daraxt				
5	Turmush				
6	Mashina				
7	Barmoq				
8	Texnika				
9	Psixika				
10	Kostyum				
11	Stol				
12	Madaniyat				
13	San'at				
14	Gul				
15	Orzu				
16	Sumka				
17	Gilos				
18	Ruchka				
19	Yaproq				
20	Quyosh				
21	Hovli				
22	Askar				
23	Oyna				
24	Hovuz				
25	Qayiq				
26	Daftar				
27	Tabiat				
28	Go'zal				
29	Varaq				
30	Kompyuter				
			M =	Σ =	Σ =
			σ =	Σ (%)	Σ (%)

Natijalar tahlili:

1. Javob sifatida aytilgan so'zlarni markaziy va periferik reaksiyalar bo'yicha sifat tahlili o'tkaziladi.
2. Har bir reaksiyalar uchun o'rtacha arifmetik qiymat (M) va o'rtacha

- kvadratik chetlashish (σ)ni aniqlanadi.
3. Markaziy va periferik reaksiyalarning foizdagi ko'rsatkichi aniqlanadi.
 4. Natijalar asosida xulosa chiqariladi.

Maqsad: Nutqiy fikrlash tezligini o'rganish.

Jihoz: Magnitofon, sekundomer.

Ishning borishi:

Tajriba guruh sharoitida yoki yakka tartibda o'tkaziladi. Guruh sharoitida olib borilganda talabalar tekshiruvchi va tekshiriluvchilarga bo'linishadi. Har bir tekshiriluvchi bilan 3-5 marta tajriba o'tkaziladi. Tajriba 1 minutdan davom etadi. Tajribalar o'rtasidagi oraliq 15-20 minutni tashkil etadi.

Tekshiriluvchiga quyidagicha ko'rsatma beriladi: «Bir minut davomida miyangizga kelgan har qanday so'zni aytishingiz mumkin. Qarshingizda mavjud bo'lgan predmetlarning nomini sanamang. Avvaldan yod olingan so'zlarni qaytarmang». Tekshiriluvchi tomonidan aytilgan so'zlar magnit lentasiga yozib olinadi va natijalarni tahlil qilish jarayonida eshittiriladi.

Tajriba raqami	Assotsiativ qator uzunligi		Semantik uyalar	
	Absolyut	O'rtacha	Uyalarning o'rtacha miqdori	O'rtacha hajmi (so'zlar soni)
1				
2				
3				
4				
5				
M				

Natijalar tahlili:

1. Bir minut davomida talaffuz qilingan so'zlar soni aniqlanadi.
2. Assotsiativ qatordagi semantik uyalar soni, har bir uyadagi so'zlar soni aniqlanadi.
3. Assotsiativ qatorning o'rtacha qiymati, uyalarning o'rtacha miqdori aniqlanadi.
4. Xulosa chiqarish uchun bir minutda talaffuz qilingan so'zlar soniga e'tibor beriladi. Bu ko'rsatkich o'rtacha 19-21 ta so'zni tashkil etadi. 35-40 ta so'z yuqori ko'rsatkichni bildiradi. 3-4 uyaning mavjudligi unda, 5-6 ta so'zning bo'lishi me'yor hisoblanadi.

7-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Qobiliyat psixodagnostikasi. Maxsus qobiliyatni o'rganish

Maqsad: Shaxsning empativlik qobiliyatini aniqlash

Jihoz: I.M.Yusupov metodikasi savollari va javoblar varag'i

Mazkur so'rovnomma I.M.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, empatiya qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida qo'llanadi. Empatiya insonning boshqalar kechinmalariga hamdard bo'la olish qobiliyati.

Ko'rsatma: «Hurmatli ishtirokchi, quyida berilgan 36 ta hukmga nisbatan o'z munosabatingizni bildiring. Buning uchun siz baholashning quyidagi tizimidan foydalanishingiz lozim: 0- bilmayman; 1 - yoki, hech qachon; 2- ba'zida; 3- ko'pincha; 4- deyarli doim; 5- ha yoki har doim».

1. Menga mashhur odamlarning hayoti xaqidagi kitoblardan ko'ra sarguzasht kitoblar yoqadi.

2. Ota- onalarning g'amxo'rligi katta yoshdagi bolalarning g'ashiga tegadi.

3. Menga boshqa odam erishgan muvoffaqiyat yoki uchragan muvoffaqiyatsizlikning sabablar xaqida mulohaza yuritish yoqadi.

4. Musiqiy ko'rsatuvlar orasidan men ko'proq «Estrada taronalari» ko'rsatuvini yoqtiraman.

5. Adolatsiz tanqidlar bir necha yillar davom etsa ham, ularga chidash kerak.

6. Kasalga xatto so'z bilan yordam berish mumkin.

7. Begonalar ikki kishi orasidagi nizoga qo'shilmasligi kerak.

8. Keksayganda odam juda injiq bo'lib qoladi.

9. Bolaligimda g'amgin hikoyani tinglaganimda, ko'zim o'z o'zidan yoshlanib ketardi.

10. Ota –onamning asabiylashishi mening ham kayfiyatimga ta'sir etadi.

11. Men tanqidlarga befarqman.

12. Men tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlardan ko'ra portretlarni tomosha qilishni yoqtiraman.

13. Ota- onam noxaq bo'lganda ham, men ularni kechirardim.

14. Agar ot aravani tortmasa, uni xivichlash kerak.

15. Boshqa odamlar hayotidagi fojealar xaqida o'qiganimda bu hodisalar men bilan ro'y berayotganday bo'lib tuyuladi

16. Ota-onalar o'z fareandlariga nisbatan noxaq munosabatda bo'ladilar.

17. Janjallashayotgan bolalarni yoki kattalarni ko'rsam men ular o'rtasiga tushaman.

18. Men ota-onamning yomon kayfiyatiga e'tibor bermayman.

19. Men boshqa ishlarimni qoldirib, hayvonlar hatti –harakatini ko'zataman.

20. Nega ayrim odamlar kinofilm ko'rib va kitob o'qib, ko'z yosh to'kishini tushunmayman.

21. Notanish odamlarning yuz ifodasi va xulq atvorini ko'zatish menga yoqadi.

22. Bolalikda men uyga qarovsiz qolgan kuchuk – mushuklarni olib kelardim.

23. Barcha odamlar biror sababsiz ham bir- biriga qarshi tishini qayrab turadi.

24. Begona odamga qarab, uning kelajagi qanday bo'lishini bilgim keladi.

25. Bolaligimda kichkintoylar hech ketimdan qolishmasdi.

26. Jarohatlangan hayvonni ko'rsam, unga qandaydir yordam berishga harakat qilaman.

27. Odamni e'tibor bilan tinglashsa, uning dardi engillashadi.
28. Ko'chada biror qoida bo'zarlikni ko'rsam, guvoxlar qatoriga tushib qolishdan o'zimni chetga tortaman.
29. Kichkinalarga men taklif etgan fikr, ish yoki ko'ngil ocharlik yoqadi.
30. Hayvonlar o'z egalarining kayfiyatini sezadi deganlar, menga mubolag'a qiladi.
31. Muomala vaziyatidan odamning o'zi mustaqil chiqishi kerak.
32. Bola besabab yig'lamaydi.
33. Yoshlar qariyalarning hamma iltimosini va injiqliklarini bajo keltirishi kerak.
34. Nima uchun ayrim sinfdoshlarim ba'zida o'ychan bo'lib qolishlarini bilgim kelardi.
35. Qarovsiz hayvonlarni tutish va yo'q qilish kerak.
36. Agar do'stlarim men bilan o'z shaxsiy muommosini muxokama qila boshlasa, gapni boshqa mavzuga burishga harakat qilaman.

Natijalarni qayta ishlash.

1. Natijalar xolisligini aniqlash. Javoblar xolisligini aniqlash uchun muayyan hukmlarga qanday javoblar berilganligini aniqlash lozim;

«Bilmadim»- 2,4,16,18,33.

«Ha yoki har doim»-2,7,11,13,16,18,23.

«Ha yoki har doim»7 va 17,10 va 18, 17 va 31,22 va 35, 34 va 36.

«Yo'q yoki hech qachon»-3 va 36, 1 va 3,17 va 28-hukm

Eslatma: ma'lum juftlik kirgan ikkala (masalan, «ha yoki har doim»dagi 7 va 17 yoki «yo'q yoki hech qachon»dagi 3 va 36 raqamli hukmlarga bir hil «ha yoki har doim» yoki «yo'q yoki hech qachon» kabi munosabat bildirilgan bo'lsa, bu munosabat xolis emas.

Noxolis munosabat holatlari 5ga teng yoki undan katta- umumiy natija ishonchli emas.

Noxolis munosabat holatlari 4 ga teng- umumiy natijaning ishonchli darajasi shubhali.

Noxolis munosabat holatlari 3 ga teng yoki undan kam- umumiy natija ishonchli.

2. Umumiy natijani aniqlash. YAkuniy natijani aniqlash uchun 2,5,8,9,10,12,13,15,16,19,21,22,24,25,26,27,28.29 va32 raqami ostidagi hukmlarga qo'yilgan baholarning yigindisini topish kerak.

Eslatma: so'rovnomaga 6 ta shaklga ega bo'lib, quyida ushbu shkalalar hamda har bir shkalaga kiruvchi hukmlarning tartib raqami ko'rsatilgan.

№	Shkalalar	hukmlar tartib raqami
1.	Ota onaga nisbatan empatiya	10,13,16.
2.	Hayvonlarga nisbatan empatiya	19,22, 25.
3.	Kariyalarga nisbatan empatiya	2,5,8.
4.	Bolalarga nisbatan empatiya	26,29,35.
5.	Badiiy qaxramonlarga nisbatan empatiya.	9,12,15.
6.	Notanish odamlarga nisbatan empatiya	21,24,27.

Natijalarni baholash.

Daraja	shkala bo'yicha	umumiy
Juda yuqori	15	82-90
Yuqori	13-14	63-81
O'rta	5-12	37-62
Past	2-4	12-36
Juda past	0-1	5-11

8-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Hissiy-irodaviy soha psixodiagnostikasi

Maqsad: Shaxsning hissiy sohasini aniqlash

Jihoz: I.D.Spilberger va M.A.Xaninning "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi.

Mazkur so'rovnoma Ch.D.Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, vaziyat bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik (VX) hamda shaxs bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik (ShX) darajasini aniqlashga xizmat qiladi (so'rovnoma Yu.L.Xanin tomonidan modifikatsiya qilingani tufayli ko'pincha «Spilberger – Xanin so'rovnoma» deb yuritiladi). So'rovnoma 40 ta ta'kid – hukmdan iborat (20 ta ta'kid – hukm VX darajasini, 20 ta ta'kid – hukm SHX darajasini o'lchashga xizmat qiladi).

Vaziyat bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik shkalasi (vx)

Ko'rsatma: Berilgan ta'kid – hukmlarga qanchalik qo'shilishingizni bildiring. Buning uchun har bir ta'kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan biri o'chirib qo'ying.

№	Ta'kid – hukmlar	Javoblar			
		Bunday emas	Shunday shekilli	Shunday	Aynan shunday
1	Men xotirjamman	1	2	3	4
2	Menga hech narsa havf solmayapti	1	2	3	4
3	Asablarim juda tajang bo'lib turibdi	1	2	3	4
4	Men ich – ichimdan siqilayapman.	1	2	3	4
5	Men o'zimni erkin his etayapman	1	2	3	4
6	Men xafaman	1	2	3	4
7	Men ro'y berishi mumkin bo'lgan omadsizliklardan xavotirdaman	1	2	3	4
8	Men ruhiy taskinlik his etayapman.	1	2	3	4
9	Men bezovtaman	1	2	3	4
10	Qrniqish hissi ich – ichimdan meni	1	2	3	4

	qamarb olgan				
11	Men o'zimga ishonayapman	1	2	3	4
12	Men asabiylashayapman	1	2	3	4
13	Men o'zimni qo'yarga joy topa olmayapman	1	2	3	4
14	Men qiziqib ketdim	1	2	3	4
15	Men siqilmayapman, asablarim joyda	1	2	3	4
16	Men xursandman	1	2	3	4
17	Men tashvishdaman	1	2	3	4
18	Halovatim yo'q	1	2	3	4
19	Men quvonayapman	1	2	3	4
20	Yoqimli hislar meni chulg'ab olgan	1	2	3	4

Shaxs bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik shkalasi (ShX)

Ko'rsatma. Berilgan ta'kid – hukmlar haqiqatga qanchalik yaqin ekanini bildiring. Buning uchun har bir ta'kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan birini o'chirib qo'ying.

№	Ta'kid – hukmlar	Javoblar			
		Hech qachon	Deyarli hech qachon	Shunday	Aynan shunday
1	Kayfiyatim ko'tarinki bo'lib turadi	1	2	3	4
2	Asablarim tajang bo'lib turadi	1	2	3	4
3	Arzimagan narsadan hafa bo'lib qolaman	1	2	3	4
4	Boshqalar singari omadli bo'lishni istayman	1	2	3	4
5	Ko'ngilsizliklarni o'zoq vaqt esimdanda chiqara olmayman	1	2	3	4
6	Men kuchimga kuch qo'shilganini sezaman	1	2	3	4
7	Men bosiq va vazminman	1	2	3	4
8	Men oldimdan chiqishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'ylab	1	2	3	4

	bezovtalanaman				
9	Men arzimagan narsalarni deb qattiq siqilib yuraman	1	2	3	4
10	Men o'zimni juda baxtiyor his etaman	1	2	3	4
11	Men hamma narsani yuragimga yaqin olaman	1	2	3	4
12	O'z – o'zimga bo'lgan ishonch etishmasligidan qiynalaman	1	2	3	4
13	Men o'zimni himoyasiz his etaman	1	2	3	4
14	Men xatarli vaziyat va narsalardan o'zoqroq yurishga harakat qilaman	1	2	3	4
15	Yuragim g'ash bo'lib turadi	1	2	3	4
16	Men xursand bo'lib turaman	1	2	3	4
17	Har xil mayda – chuydalar meni chalg'itadi va bezovta qiladi	1	2	3	4
18	O'zimni omadsiz insondek his etaman.	1	2	3	4
19	Men o'zimni qo'lga ola bilaman	1	2	3	4
20	Ish va yumushlarim haqida o'ylaganimda halovatim yo'qoladi	1	2	3	4

Natijani baholash

Test kaliti yordamida shkaladagi har bir fikrga bergan javobiga ko'ra tekshiriluvchi to'plagan ballar hisoblab chiqiladi. Har bir shkala bo'yicha to'plangan ballar yig'indisi 20 ga bo'linadi va xavotirlanish darajasi indeksi aniqlanadi

Shaxsiy va vaziyatli xavotirlanishning baholash metodikasi kaliti

	Vaziyatli xavotirlanish javoblari		Shaxsiy xavotirlanish javoblari
	4 3 2 1	1	4 3 2 1
	4 3 2 1	2	1 2 3 4
	1 2 3 4	3	1 2 3 4
	1 2 3 4	4	1 2 3 4

	4 3 2 1	5	1 2 3 4
	1 2 3 4	6	4 3 2 1
	1 2 3 4	7	4 3 2 1
	4 3 2 1	8	1 2 3 4
	1 2 3 4	9	1 2 3 4
0	4 3 2 1	0	4 3 2 1
1	4 3 2 1	1	1 2 3 4
2	1 2 3 4	2	1 2 3 4
3	1 2 3 4	3	1 2 3 4
4	1 2 3 4	4	1 2 3 4
5	4 3 2 1	5	1 2 3 4
6	4 3 2 1	6	4 3 2 1
7	1 2 3 4	7	1 2 3 4
8	1 2 3 4	8	1 2 3 4
9	4 3 2 1	9	4 3 2 1
0	4 3 2 1	0	1 2 3 4

Rivojlanish darajasi haqida xulosa

3,5-4,0-xavotirlanish juda yuqori	3,0-3,4-yuqori xavotirlanish
2,0-2,9-o'rtacha xavotirlanish	1,5-1,9-past xavotirlanish
0,0-1,4-juda past xavotirlanish	

9-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Irodaviy sohani o'rganish

Maqsad: Shaxsning irodaviy sifatlarini aniqlash

Jihoz: Sub'yektiv nazorat darajasini aniqlash testi

Mazkur so'rovnoma S.R.Panteleev va V.V.Stolin tomonidan Dj.Rotter shkalasini modifikatsiya qilish asosida ishlab chiqilgan bo'lib, sub'yektiv lokal nazoratning ustun turini aniqlash uchun xizmat qiladi. So'rovnoma talabalar bilan tashxis o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, 32 ta, band (26 ta haqiqiy va 6 ta chalg'ituvchi band)dan iborat.

Sinaluvchiga ko'rsatma: «Quyidagi juft – juft ta'kidlardan o'zingizga ma'qul bo'lgan bittasini tanlang».

So'rovnoma matni

1. a) bolalar tarbiyasidagi muammolar ota – onalarning xaddan tashqari qattiqqo'lligi tufaylidir.

b) bolalar tarbiyasidagi ko'pchilik muammolar ota – onalarning yetarlicha qattiqqo'l emasligidan kelib chiqadi.

2.a) hayotdagi ko'pchilik muvaffaqiyatsizliklar sababi omadsizlikdir.

b) odamning omadsizligiga uning o'z xatolari sababdir.

3. a) aholiga xizmat ko'rsatish sohalaridagi ko'pchilik muammolar ular bilan yaxshi kurash olib borilayotganligimiz sababli ro'y bermoqda.

b) yaqin orada aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini deyarli yaxshilab bo'lmaydi.

4.a) Odamning o'zi nimaga arzisa, boshqalar unga shunday munosabatda bo'ladilar.

b) afsuski, ko'p hollarda odamning ijobiy sifatleri e'tiborsiz qoldiriladi.

5 a) talaba hayotining tinch bo'lishi uning fakultet rahbariyati bilan bo'lgan munosabatiga bog'liq

b) mas'uliyatli va intizomli talabaning o'qish bilan bog'liq muammolari bo'lmaydi.

6. a) o'qituvchilarning adolatsizligi haqidagi shikoyatlar ko'pincha asossiz bo'ladi

b) ko'pchilik talabalar ularning bahosi baxtli yoki baxtsiz tassodifga bog'liq ekanini tushunmaydilar.

7. a) omadsiz hech kim hayotda muvaffaqiyatga erisha olmaydi

b) agar qobiliyatli inson hayotda ko'p narsaga erisha olmagan bo'lsa, demak, u bor kuchini ishga solmagan

- 8.a) harchand harakat qilmang ba'zi odamlarga baribir yoqa olmaysiz
 b) boshqalarga yoqmaydigan odamlar shunchaki ularning tilini tushunmaydi
9. a) nasl – nasab inson hayotida ko'p narsani hal qiladi.
 b) inson hayotining qanday bo'lishi uning o'z harakatlariga bog'liq
10. a) tajribamdan bilamanki, agar biror narsa ro'y berishi kerak bo'lsa, u ro'y beradi
 b) men shunga amin bo'ldimki, odamga ishongandan ko'ra harakat qilgan afzal
11. a) darsga yaxshi tayyorlangan talaba ko'pincha yaxshi baho oladi
 b) imtixon – bu lotoreya va unga ko'p kuch sarflab tayyorlanish shart emas
12. a) muvaffaqiyat mashaqqatli mehnatdan keyin kelib, odamga deyarli bog'liq emas
 b) yaxshi joyga joylashish uchun zarur vaqtda zarur joyda bo'lishi kerak
13. a) talabaning fikri asosli bo'lsagina e'tiborga olinadi
 b) talabalar dekanat qarorlariga deyarli ta'sir o'tkazmaydi
14. a) nimani rejalashtirmay men doim mo'ljallangan narsalarni qila olishimga ishonaman
 b) ba'zida ishni rejalashtirmagan ma'qul, chunki ko'p narsa vaziyatga bog'liq
15. a) shunday odamlar borki, ulardan hech yaxshilik chiqmaydi
 b) har qanday insonda qandaydir yaxshi jihat bo'ladi
16. a) agar to'g'ri qaror qabul qilingan bo'lsa, natijaga erishish vaziyatga unchalik bog'liq bo'lmaydi
 b) ko'p hollarda biz tavakkaliga qaror qabul qilamiz
17. a) kimning rahbar etib tayinlanishi omadga bog'liq
 b) odamlarni boshqarish uchun maxsus qobiliyatlar kerak
18. a) olamdagi voqealar bizning ixtiyorimizdan tashqarisidagi kuchlarga bog'liq
 b) siyosat va jamoat ishlarida qatnashib odamlar jahondagi voqealarni boshqarishi mumkin.
19. a) agar yotoqxonada hayot zerikarli bo'lsa, demak, talabalar qo'mitasi yaxshi ishlamayapti
 b) yotoqxonadagi hayotni qiziqarli qilish talabalarning o'z qo'lida
- 20 a) ko'pchilik odamlar ularning hayoti tasoddiqlarga qanchalik bog'liq ekanini tushunmaydilar ham
 b) omad degan narsaning o'zi yo'q
- 21.a) odamning ba'zida xato qilishga haqqi bor
 b) odatda yo'l qo'yilgan xatolarni bekitgan ma'qul.
22. a) nima uchun ayrim odamlarga yoqishimizni tushunishimiz qiyin
 b) do'stlar sonining ko'pligi o'zining qanday inson ekaniga bog'liq
- 23.a) hayotimda ro'y beradigan kungilsizliklar bilan muvaffaqiyatlar o'zaro muvozanatda bo'ladi
 b) baxtsiz hayot insonda qobiliyatlarning etishmasligi, uning dangasaligi

natijasi

24. a) magistrant talaba – bu avvallari bakalvariat bosqichida yaxshi o'qigan, qobiliyatli, mehnatsevar talabadir

b) magistraturaga kirish uchun tanish – bilish kerak

25. a) ba'zida o'qituvchilar bahoni nima asosida qo'yishini tushuna olmay qolaman

b) qanchalik ko'p harakat qilsam, shunchalik yaxshi baho olaman

26.a) bugun sidqidildan mehnat qilsam, ertaga ilmiy muvaffaqiyatlarga erishaman

b) ko'pchilik ilmiy kashfiyotlar kutilmagan tasoddiqlar natijasidir

28. a) ba'zida hayotimda ro'y berayotgan hodisalarga men unchalik kuchli ta'sir ko'rsata olmayotganimni his etaman

b) hayotimda omad ko'p narsani hal qilishi mumkinligiga deyarli ishonmayman

29. a) odamning yolg'izligiga uning o'zi boshqalar bilan do'stlashishni xohlamasligi sabab bo'ladi

b) boshqalarga yoqish uchun harakat qilishdan foyda yo'q, yoqsang ularga shunday ham yoqasan

30. a) oliygohda keraksiz ravishda jismoniy tarbiyaga ko'p e'tibor beriladi

b) sport bilan shug'ullanish harakter tarbiyasining eng yaxshi vositasidir

31.a) men bilan nima hodisa ro'y bersa, bunga avvalo o'zim sababchiman

b) ba'zida menga hayotim o'z – o'zidan o'tayotgandek bo'lib tuyuladi

32.a) oddiy talabaning dekanat nima asosida har xil qarorlar chiqarishini tushunishi qiyin

b) dekanat qat'iy choralar ko'rishiga talabalarning o'zi sababchi bo'ladi.

Kalit

Internal lokus nazorat: 2b, 3a, 4a, 5b, 6a, 7b, 8b, 10b, 11a, 12a, 13a, 14a, 16a, 17b, 18b, 19b, 20b, 22b, 23b, 24b, 25b, 27a, 28b, 29a, 31a, 32b.

Eksternal lokus nazorat: 2a, 3b, 4b, 5a, 6b, 7a, 8a, 10a, 11b, 12b, 13b, 14b, 16b, 17a, 18a, 19a, 20a, 22a, 23a, 24a, 25a, 27b, 28a, 29b, 31b, 32a.

CHalg'ituvchi bandlar: 1, 9, 15, 21, 26, 30.

Sub'ektiv lokal nazorat ko'rsatkichi sinaluvchi internal lokus nazorat darajasini o'lchashga xizmat qiluvchi bandlar bo'yicha to'plagan ball asosida hisoblab topiladi. Bunda 26 ball maksimal darajadagi eksternal nazoratga muvofiq keladi.

So'rovnoma 300 nafar talaba bilan standartlashtirilgan: o'rtacha ball – 14, 2; standart og'ishish darajasi – 4,4.

Quyidagi jadval asosida dastlabki ballar standart birliklar – stenlarga aylantirilishi mumkin.

Dastlabki ballar	0	5	8	11	13	15	17	19	21	23
	–	-	-	12	14	16	18	20	22	26
	4	7	10							

Stenlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
---------	---	---	---	---	---	---	---	---	---	----

10- LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Motivatsion soha psixodagnostikasi (2 soat)

Maqsad: Shaxsning motivatsion sohasini aniqlash

Jihoz: Mexrabyan metodikasi

Agar sizda qandaydir savollar tug'lsa testni bajarishga kirishishdan oldin ularni so'rab oling. «Endi ishga kirishishingiz mumkin!»

A shakli savolnomasi 32 ta, B shakli esa 30 ta mulohazadan iborat.

Savolnoma (A shakli)

- 1 Men yomon baho olishdan xavfsirashdan ko'ra, ko'proq yaxshi baho olishni o'ylayman.
- 2 Agar biror murakkab, menga notanish bo'lgan topshiriqni bajarish kerak bo'lsa, uni yolg'iz emas, balki kim bilandir bajarishni afzal ko'raman.
- 3 Menimcha amalga oshirishga harakat qilishga nisbatan kelajak rejalarim haqida ko'proq orzu qilaman.
- 4 Ko'pincha men, xatto o'zimga ishonmasam ham murakkab vazifani bajarishga kirishaman.
- 5 Meni omadsizlikka olib kelishi mumkin bo'lgan ishga nisbatan uni muvaffaqiyatli bajarishga amin bo'lgan osonroq ish ko'proq jalb etadi.
- 6 Agar biror ish qo'limdan kelmayotgan bo'lsa uddasidan chiqqan oladigan boshqa ishga o'tishdan ko'ra, bor kuchimni sarflab shu ishni oxiriga yetkazishga harakat qilaman.
- 7 Maoshi o'rtacha o'z rolimni o'zim belgilashim lozim bo'lgan ishga nisbatan vazifam aniq hamda maoshi o'rtadan yuqori bo'lgan ishni afzal ko'raman.
- 8 Badiiy adabiyot o'qishga nisbatan maxsus adabiyotni o'qishga ko'proq vaqt sarflayman.
- 9 Yetarli darajada muhim, biroq unchalik murakkab bo'lmagan ishga nisbatan muhim, murakkab ishning muvaffaqiyatsizlik ehtimoli 50% bo'lsa ham shu ishni tanlagan bo'lardim.
- 10 Men yuksak mahoratni talab qiluvchi va ko'pchilikka noma'lum bo'lgan, kamdan-kam uchraydigan o'yinlarga nisbatan barchaga ma'lum bo'lgan kungilochar o'yinlarni o'rgangan bo'lardim.
- 11 Men uchun o'z ishimni, xattoki o'rtoqlarim bilan tortishuv gacha borsam ham iloji boricha yaxshi bajarishim muhimdir.
- 12 Agar karta o'ynashga kirishsam, chuqur o'ylashni talab qiluvchi murakkab o'yinga nisbatan yengilroq o'yinni tanlagan bo'lar edim.
- 13 Barcha ishtirokchilar kuch jihatidan deyarli teng bo'lgan joyga nisbatan boshqalardan kuchli ekanligimni bilgan yerda musobaqalashishni afzal ko'raman.
- 14 Ishdan bo'sh vaqtimda dam olgandan ko'ra o'z malakalarimni rivojlantirish uchun biror o'yinni o'rganar edim.
- 15 Biror ishni boshqalar maslahati bilan emas, hattoki 50% yangilashim

- ehtimoli bo'lsa ham o'z hoxishim bo'yicha bajarishni afzal ko'raman.
- 16 Agar menga 2 ta ish-maoshi 200 ming so'm bo'lgan, shu miqdor noaniq vaqt saqlanib qoladigan ish bilan oylik maoshi 160 ming so'm, biroq 5 yildan so'ng men 360 ming so'm oylik olishim kafolatlangan ish taklif qilishsa, men birinchi taklifni tanlagan bo'lar edim.
 - 17 Birga-bir musobaqalashgandan ko'ra komandada o'ynagan bo'lar edim.
 - 18 Men natija bilan to'liq qoniqish hosil qilmagunimcha o'z kuchimni ayamasdan ishlagan bo'lardim.
 - 19 Imtihonda o'z fikrini bildirish kerak bo'lgan savolga nisbatan aniq o'tilgan mavzu berilgan savolni afzal ko'raman.
 - 20 Natijalariga ko'ra hech qanday o'zgarishga olib kelmaydigan ishga nisbatan biroz muvaffaqiyatsizlik ehtimoli bor, lekin yutuqqa erishish imkonini mavjud bo'lgan ishni tanlagan bo'lar edim.
 - 21 Imtihondagi muvaffaqiyatli javobimdan keyin yaxshi bahodan xursand bo'lishdan ko'ra yengil nafas olgan bo'lar edim.
 - 22 Oxiriga yetkazilmagan 2 ish - og'ir va yengil ishga qaytish mumkin bo'lsa, men murakkabini tanlagan bo'lar edim.
 - 23 Yozma ishni bajarayotganimda men uni qanday qilib tug'ri echish haqida emas, biror xato qilib qo'ymaslik haqida ko'proq qayg'uraman.
 - 24 Agar biror ishdan natija chiqmayotgan bo'lsa yaxshisi yordam so'rab boshqalarga murojat qilaman.
 - 25 Muvaffaqiyatsizlikka uchrasam ishni davom ettirishga hoxish yo'qotmay, yanada g'ayratli va mulohazali bo'lib qolaman.
 - 26 Agar biror ishda muvaffaqiyatsizlik ehtimoli mavjud bo'lsa, shu ishga kirishmay qo'yaqolaman.
 - 27 Biror murakkab ishga kirishsam, uni muvaffaqiyatli bajarishga ishonchdan ko'ra uning uddasidan chiqa olmaslikdan qo'rqaman.
 - 28 Men o'zim emas, balki boshqa birovning rahbarligi ostida samaraliroq ishlayman.
 - 29 Tanish ishga nisbatan murakkab notanish topshiriqni bajarish menga ko'proq yoqadi.
 - 30 Agar vazifani qanday bajarish haqida aniq ko'rsatma berishsa, uning ustida yaxshiroq ishlayman.
 - 31 Agar biror ishni muvaffaqiyatli yakunlasam umuman boshqa turdagi topshiriqni bajarishdan ko'ra, shunga o'xshash ishni bajarishga bajanidil kirishar edim.
 - 32 Agar musobaqalashish kerak bo'lsa, tashvish va xavotirlanishdan ko'ra menda ko'proq qiziqish va ehtiros paydo bo'ladi.

Savolnoma (B shakli)

- 1 Men yomon baho olishdan xavfsirashdan ko'ra, ko'proq yaxshi baho olish haqida o'ylayman.
- 2 Ko'pincha men hal qilishim aniq bo'lgan yengil vazifaga emas, hal qila olishimga unchalik ishonch bulmagan murakkab ishga qo'l uraman.
- 3 Meni omadsizlikka olib kelishi mumkin bo'lgan qiyin ishga nisbatan uni muvaffaqiyatli bajarishimga amin bo'lgan yengilroq ish ko'proq jalb qiladi.

- 4 Agar biror ish qo'limdan kelmayotgan bo'lsa uddasidan chiqa oladigan boshqa ishga o'tishdan ko'ra, bor kuchimni sarflab shu ishni oxiriga etkazishga harakat qilaman.
- 5 Maoshi o'rtacha o'z rolimni o'zim belgilashim lozim bo'lgan ishga nistatan vazifam aniq hamda maoshi o'rtadan yuqori bo'lgan ishni afzal ko'raman.
- 6 Muvaffaqiyatga bo'lgan ishonchga nisbatan menda omadsizlikdan qo'rqish xissi kuchli kechinmalarni tug'diradi.
- 7 Ko'ngilochar janrdagi adabiyotga nisbatan ilmiy ommabop adabiyotni afzal ko'raman.
- 8 Etarli darajada muhim, biroq unchalik murakkab bo'lmagan ishga nisbatan muhim, murakkab ishni yoqtiraman, xatto uning muvaffaqiyatsizlik ehtimoli 50% bo'lsa ham.
- 9 Men yuksak mahoratni talab qiluvchi va ko'pchilikka noma'lum bo'lgan, kamdan-kam uchraydigan o'yinlarga nisbatan barchaga yaxshi ma'lum ko'ngilochar o'yinlarni o'zlashtirgan bo'lar edim.
- 10 Xatto o'rtoqlarim bilan tortishuvgacha borsamda, o'z ishimni iloji boricha yaxshiroq bajarishim muhimdir.
- 11 Imtihonda muvaffaqiyatli javob bergach, yaxshi baho olganimdan xursand bo'lishdan ko'ra yengil nafas olishni ko'proq xush ko'raman.
- 12 Agar karta o'ynashga kirishsam, chuqkur o'ylashni talab qiluvchi murakkab o'yinga nisbatan yengilroq o'yinni tanlagan bo'lar edim.
- 13 Barcha ishtirokchilar kuch jihatdan deyarli teng bo'lgan joyga nisbatan boshqalardan kuchli ekanligimni bilgan yerda musobaqalashishni afzal ko'raman.
- 14 Muvaffaqiyatsizlikka uchraganimdan so'ng, ishni davom ettirishga hoxish yuqotmay, yanada g'ayratli va mulohazali bo'lib qolaman.
- 15 Omad quvonch keltirishga qaraganda muvaffaqiyatsizlik meni hayotimni ko'proq zaharlaydi.
- 16 YAngi, noaniq vaziyatlarda qiziquvchanlikka nisbatan ko'proq tashvishlanish paydo bo'ladi.
- 17 Har doim mazali chiqadigan odatdagi taomni tayyorlashdan ko'ra yomon chiqishi mumkin bo'lgan yangi, qiziqarli taomni tayyorlashga harakat qilaman.
- 18 Yoqimsiz ishga nisbatan yoqimliroq ish bilan shug'ullanishga intilaman.
- 19 Bir vaqtning o'zida 2-3 ta ishni tezda bajarishga nisbatan bitta ishni bajarishga shu vaqtni ketkazaman.
- 20 Agar kasal bo'lib qolsam, o'z vaqtimni kitob o'qish , biror ishga emas, balki dam olishga intilaman.
- 21 Agar men bir xonada bir necha qizlar bilan yashasam va biz qandaydir kecha uyushtirmoqchi bo'lsak, bu ishni boshqa qizga topshirishdan ko'ra uni o'zim tashkil qilar edim.
- 22 Agar qilayotgan ishim chiqmasa, uni amalga oshirish yo'lini o'zim qidirgandan ko'ra boshqalarga yordam so'rab murojat qilaman.
- 23 Agar kim bilandir musobaqalashishim zarur bo'lsa, bu menda g'am tashvish emas, qiziqish uyg'otadi.

- 24 Biror murakkab ishga kirishsam, uni muvaffaqiyatli bajarishga ishonmasdan, uning uddasidan chiqa olmaslikdan cho'chiyman.
 - 25 Men emas, balki boshqa birovning rahbarligi ostida samaraliroq ishlayman.
 - 26 Tanish ishga nisbatan murakkab notanish topshiriqni bajarish menga ko'proq yoqadi.
 - 27 Agar biror ishni muvaffaqiyatli yakunlasam umuman boshqa turdagi topshiriqni bajarishdan ko'ra, shunga o'xshash ishni bajarishga bajanidil kirishar edim.
 - 28 Menga topshiriqni qanday bajarish haqida aniq kursatma bermay, uni umumiy tarzda bajarish vazifasini qo'ysalar samaraliroq ishlayman.
 - 29 Biror muhim ishni bajarishda xatoga yo'l qo'ysam, xatoimni to'g'rilash o'rniga ko'pincha o'zimni yo'qotib qo'yaman.
 - 30 Kelgusi haqida rejalarimni amalga oshirishga harakat qilmay, ular haqida ko'proq orzu qilaman.
- Ballarni hisoblash.

Ballar yig'indisini quyidagicha hisoblab chiqamiz. Agar kalitda «+» belgisi bo'lsa:

$$\begin{array}{r} -3 -2 -1 0 1 2 3 \\ \hline 1 2 3 4 5 6 7 \end{array} +$$

Agar «-» belgisi bo'lsa:

$$\begin{array}{r} -3 -2 -1 0 1 2 3 \\ \hline 7 6 5 4 3 2 1 \end{array} -$$

A shakl uchun kalit: +1,-2,+3,-4,+5,-6,+7,+8,-9,+10,-11,-12,+13,+14,-15,-16,+17,-18,+19,-20,+21,-22,-23,+24,-25,-26,-27,-30,+31,-32.

B shakl uchun kalit: +1,+2,-3,+4,-5,-6,+7,+8,-9,+10,-11,-12,-13,+14,-15,-16,+17,-18,+19,-20,+21,-22,+23,-24,-25,+26,-27,+28,-29,-30.

Ballar yig'indisi hisoblash asosida tekshiriluvchida qaysi motivatsiya ustunligi aniqlanadi.

11-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Shaxs psixodiagnostics

Maqsad: Kettel testlarning qo'llanilishini o'rganish

Jihoz: Kettel testi, natijalarini tahlil qilish usullari va javoblar varag'i.

Sizning oldingizda shaxsiy qarashingiz va qiziqishlaringizni aniqlovchi savollar turibdi.

Javoblar blankasiga familiyangizni va o'z haqingizdagi malumotlarni yozing. Har bir savolga javob bera turib, javoblar blankasining mos keluvchi katakchasiga ularning uchtasidan: «a» (ha) - ? – «b» (yo'q) birini ko'rsating. «?» javobiga agar siz aniq javob bermasangiz yoki har ikkala javob sizga ma'qul kelganda qo'llashingiz mumkin. Lekin noaniq javoblarni suiste'mol qilmaslikka harakat qiling. Har bir detal ustida uzoq o'ylanmasdan, yaqqol holatlarni ko'z

o'ngingizga keltiring. Javob ustida uzoq bosh qotirmang, yaxshisi miyangizga kelgan birinchi tabiiy javobni bering.

Javob haqqoniy va aniq bo'lsin. Bunda «to'g'ri» yoki « noto'g'ri » javoblar yo'qligini, har bir odam o'zining shaxsiy fikriga ega ekanligini esda tuting.

1. Siz boshqalarning talablariga va favquloddagi muhitiga moslasha olasizmi? ha - ? – yo'q
2. Sizning tushingizda gaplashish hollari uchrab turadimi?
3. Siz o'zingizni ba'zi bir munosabatlarda boshqalardan Yuqoriman deb hisoblaysizmi?
4. Siz odamlardagi qaysi xislatlarni ko'proq qadrlaysiz?
a) kuchli irodanimi? b) yorqin his-tuyg'unimi?
5. Majlislarda Siz:
a) bajonidil so'zga chiqasizmi? b) indamasdan o'tirasizmi?
6. Siz o'zlarini boshqalardan ustun qo'Yuvchi maqtanchoq odamlar bilan yashay olasizmi?
7. Muvaffaqiyatsizliklar:
a) Sizda ishga nisbatan hohish pasaytiradimi?
b) Yangi kuch qo'zg'atadimi?
8. Odatda siz muammoni engil hal etish uchun:
a) o'zingiz uni chuqurroq o'rganasizmi?
b) boshqalar bilan maslahatlashasizmi?
9. Siz har bir ishni shoshmasdan bajarishni afzal ko'rasizmi?
10. Yurakka yaqin olmasa ham bo'ladigan ikir-chikirlar ba'zan Sizni asabingizni buzadimi?
11. Siz odamlar orasida tez-tez bo'lib turishni yoqtirasizmi?
12. Sizni ko'proq:
a) yon-atrofdagilarning ixtiyorisiz, yoqimsiz hatti-harakatlari, qattiq yo'talishi g'azablantiradimi?
b) hatti-harakat qoidalarining jamiyatda ongli ravishda buzishi jahlingizni qo'zg'atadimi?
13. Agar biron bir bahsda hamma sizga qarshi fikr bildirishsa odatda siz ularga yon berasizmi?
14. Siz o'z xulq-atvoringizda haqqoniylik va umumaxloqiy printsiplarga rioya qilasizmi?
15. Sizda yangi taassurotlarga va noaniqlikni aniqlashga nisbatan hohish tez-tez vujudga keladimi?
16. Ko'pchilik odamlar o'z qiziqishlarini odatda boshqalar istagiga qarshi bormasdan qurbon qiladilar, deb hisoblaysizmi?
17. Siz o'zingizni hayot va uning talablariga mukammal moslashganman, deb hisoblaysizmi?
18. Siz qanday ish bilan shug'ullanishni ma'qul ko'rasiz?
a) juda qiziq;
b) unchalik qiziq emas, lekin malum bir ijtimoiy mavqega olib keladigan.
19. Isrofchilik sizda keskin salbiy his-tuyg'uni qo'zg'atadimi?

20. Siz o'zingizdan g'azablangan holatingizda boshqalarga yoqmaydigan tanbeh berishga qodirmisiz?
21. Siz tez-tez atrofdagilardan Yuz o'girib, parishon bo'lib turasizmi?
22. Siz yotish oldidan achchiq choy yoki kofe ichgan chog'ingizda ham yaxshi uxlay olasizmi?
23. Ayrim vaqtda, agar muvaffaqiyat qozonish uchun imkoniyat kam bo'lsa ham tavakkal qilish mumkin deb hisoblaysizmi?
24. Agar siz tanish bolalar bir-biri bilan o'yinchoq uchun janjallashayotganini ko'rib qolsangiz:
 - a) janjallashishlariga yo'l qo'yib berasizmi?
 - b) bahsni hal qilish uchun aralashasizmi?
25. Siz o'zingizdan Yuqori martabali yoki nimasi bilandir sizdan Yuqoriroq turuvchi shaxs oldida uyalgandek his qilasizmi?
26. Agar odamlar sizning orqangizdan hech bir sababsiz fikr bildirsa, siz bunga qayg'urasizmi?
27. Agar zaruriyat tug'ilsa hayotiy qiyinchiliklarga qarshi chiqa olaman, deb ishonch bildirasizmi?
28. Agar sizga notanish shaharga borish to'g'ri kelib qolsa:
 - a) ekskursiyachi xizmatidan foydalanishni afzal ko'rasizmi?
 - b) mustaqil tanishishni lozim topasizmi?
29. Sizni odamlardan oson jahlingiz chiqadimi?
30. Ba'zi bir paytlarda siz o'zingizga-o'zingiz achinasizmi?
31. Agar kim bilandir tanishishni istasangiz, u bilan yaqinlashishga birinchi bo'lib qadam qayasizmi?
32. Siz o'zingizda betoblikni tez-tez his qilasizmi?
33. Siz yarim tunda qabristonda hech qanday yoqimsiz his-tuyg'usiz Yura olasizmi?
34. Odatda siz ishni boshlab turib:
 - a) agar qiyinchiliklarga duch kelsam, ularni engi olaman, deb hisoblaysizmi?
 - b) unga kirishishdan avval, uning echimini oldindan ko'ra olasizmi?
35. Agar to'satdan begona kishilarning diqqat markazida bo'lib qolsangiz, unda siz hijolat tortasiz?
36. Buyruq berishni yaxshi ko'ruvchi va sizdan foydalanishni istovchi kishilarga qarshi turish istagi vujudga kelganmi?
37. Sizda sababsiz tashvishlanishga hohish (mayl) bormi?
38. Siz reja tuzishda nimani afzal ko'rasiz:
 - a) o'zingiz tuzishnimi?
 - b) boshqalar bilan maslahatlashib tuzishnimi?
39. Siz odatda his-tuyg'ularingizni bildirmaslikni uddalaysizmi?
40. g'ashingizga haddan ziyod mayda qiyinchiliklar tegadimi?
41. Gazetadagi qaysi sarlavha Sizni ko'proq qiziqtiradi?
 - a) xalqaro hamjihatlikning yangi yo'llarimi?
 - b) fizika sohasidagi yangi yirik kashfiyotmi?
42. Odatda sizdan hammadan ko'proq talab qilinganda, quvvatingiz

etarlicha bo'ladimi?

43. Agar siz suhbat paytida biron-bir kishining o'z mulohazasini aytishga uyalayotganligini ko'rsangiz:
 - a) uni o'z mulohazasini aytishga undashga harakat qilasizmi?
 - b) fursatdan foydalanib, o'z so'zingizni aytasizmi?
44. Siz shug'ullanayotgan narsangizga diqqatingizni engil jalb qila olasizmi?
45. Agar siz yoqtirgan boshqa jinsdagi shaxs bilan Yuzma-Yuz gaplashmoqchi bo'lsangiz unga juratsizligingiz xalaqit bermaydimi?
46. Sizga haddan tashqari iltifot ko'rsatadigan kishilarga nisbatan ishonchsizlik bilan qaraysizmi?
47. Hayotda o'zingizga siz hech narsaga erisha olmaydigan va hech narsaga arzimaydigan kishi bo'lib tursangizmi?
48. Agar siz biror narsani aniqlamoqchi bo'lsangiz:
 - a) buni boshqalardan so'rab so'ng amalga oshirishni afzal ko'rasizmi?
 - b) shu sohadagi maxsus adabiyotlarni o'qish orqali bunga erishishni afzal ko'rasizmi?
49. Qiyin vaziyatda siz parishonlikka yoki haddan tashqari ta'sirchanlikka moyilmisiz?
50. Agar sizni biron-bir narsa muvozanatdan chetga chiqarsa siz avvalgi holatingizga tez qaytasizmi?
51. Siz o'z bo'sh vaqtingizni:
 - a) munozarali to'garakka qatnashish bilanmi?
 - b) havaskorlik foto to'garagida o'tkazishni afzal ko'rasizmi?
52. Sizni ko'proq:
 - a) suhbat davomida ayni bir mavzuga bir necha bor qaytadigan;
 - b) ichib olib, atrofdagilarni ranjitadigan kishilar g'ashangizga tegadimi?
53. Uzoq davom etadigan ishga kirishganingizda:
 - a) zaruriyat tug'ilsa dam olishingiz va bo'shashingiz mumkinmi?
 - b) bu ish tugamaguncha undan bo'shashish, butunlash voz kyechish qiyin bo'ladimi?
54. Shaxslararo kishilar bilan munosabatda sizni:
 - a) emotsional kishi;
 - b) hushyor, amaliy kishi deb hisoblaydilar?
55. Sizga ko'pchilik orasida katta ziyofatlarda, raqs kechalarida bo'lish yoqadimi?
56. Siz o'z raqibingizga nisbatan nafrat, hasad, his-tuyg'usiz u bilan kurasha olasizmi?
57. Hazil ob'ektiga aylanib qolsangiz siz o'zingizni yo'qotib qo'yasizmi?
58. Ommaviy sportning maqsadi:
 - a) jamoatchilik tuyg'usini tarbiyalash;
 - b) irodaviy va jismoniy sifatlarni rivojlantirish deb hisoblaysizmi?
59. Siz, biron ish davomida Yuqori asab zo'riqishi natijasida, boshqalarga nisbatan ko'proq kuch-quvvat sarflayman deb o'ylaysizmi?
60. Oxirgi vaqtda sizda avvalgiga nisbatan ko'proq qiyinchiliklar

tug'ilyapti deb hisoblaysizmi?

61. Agar quyidagi ikki kasb bir darajada faxrli bo'lsa va ularga bir xil haq to'lansa, siz qaysi birida ishlashni afzal ko'radingiz?
 - a) ofisiant;
 - b) duradgor.
62. Siz uchun vahimali qo'rqinch hissini uyg'otadigan hayvonlar bormi?
63. Siz o'zingizni yon berishlariga mayl, boshqalar mushohadasidan qat'iy nazar o'z fikringizda turuvchi deb hisoblaysizmi?
64. Agar do'stlaringiz qandaydir yangi ish boshlashsa, siz:
 - a) bunga muayyan darajada ehtiyotkorlik bilan qaraysizmi?
 - b) ularning tashabbusini va g'alabaga ishonchini qo'llab-quvvatlaysizmi?
65. Siz qiyinchiliklar va ko'ngilsizliklarda hamma narsa o'z-o'zidan bartaraf qilinadi va o'z holiga keladi deb hisoblaysizmi?
66. Siz o'zingizni har doim xushmuomala va kamtar tutishga harakat qilasiz va uni boshqalardan talab qilasizmi?
67. Agar siz odamlarda o'zingizga nisbatan muayyan etiborni sezmasangiz:
 - a) bunga ahamiyat bermaysizmi?
 - b) siqilib, o'z kuchingizga nisbatan ishonch yo'qotasizmi?
68. Jamoat ishlarida faol ishtirok etasizmi?
69. Agar siz biron masala bo'yicha so'zga chiqsangiz:
 - a) lo'nda qilib, erkin so'zlaysizmi?
 - b) o'z fikringizni aniq va ravshan bayon qila olasizmi?
70. Agar davomli nutqni eshitib o'tirishga to'g'ri kelsa, siz o'z holatingizni tez-tez o'zgartirishga majbur bo'lasizmi?
71. Siz hazillashishni va do'stlaringizga qiziq voqealarni aytib berishni yoqtirasizmi?
72. Siz kuchli hissiy kechinmalar haddan tashqari holdan toydirishi tufayli, ulardan o'zingizni chetga olishingiz kerak deb hisoblaysizmi?
73. Siz tez-tez o'zingizga boshqalardan qobiliyatsizroqdek bo'lib tuyulasizmi?
74. Ko'pchilik kishilar hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun sabot bilan harakat qilsalar, bunga erishadilar, deb hisoblaysizmi?
75. Siz o'zingizni odamshavanda (muomalali) suxandon deb hisoblaysizmi?
76. Agarda biror kishi nohaq va o'z manfaatini ko'zlab harakat qilayotganiga ishonch hosil qilsangiz, unga zid chiqish siz uchun qimmatga tushsa ham unga qarshilik ko'rsatishga intilasizmi?
77. Yomon kayfiyat, hech kimni ko'rishni va hech kim bilan gaplashishni hohlamaydigan davrlar sizda:
 - a) tez-tez bo'lib turadimi?
 - b) juda kam bo'lib turadimi?
78. Agar siz biror topshiriqni amalga oshirishingiz kerak bo'lsa:
 - a) qobiliyatli va mustaqil xodimlar jamoada ishlash lozim deb toparmidingiz?

- b) bir yoki ikki yordamchi bilan cheklanib, hamma narsani o'z qo'lingizga olarmidingiz?
79. Faoliyat xususiyati tez-tez o'zgarib turadigan ish sizga yoqadimi?
80. Agar qiyin topshiriqni bajarishingiz lozim bo'lsa, u haqidagi fikr sizni qiynaydimi?
81. Poezdda yoki boshqa jamoat joylarida notanish kishilar bilan uchrashib qolsangiz ularning kim ekanligini, nima bilan shug'ullanishlarini bilishni hohlaysizmi?
82. Ba'zi paytlarda odamlar sizga keragidan kam xushmuomala va do'stona munosabatda bo'layotgandek tuyuladimi?
83. Boshqalar oldida bezovtalikni his qilaysizmi?
84. Siz o'ta sinchkovlikka hafsalasi yo'q, beg'am odam bo'lib hisoblanasizmi?
85. Atrofigizdagi odamlar bilan munosabatingizda:
a) o'z his-tuyg'ularingizni engil ochib tashlaysizmi?
b) ularni o'zingizda yashirib qoldirasizmi?
86. Davrimizning ko'p baxtsizliklari quyidagilar bilan bog'liq deb hisoblaysizmi?
a) yovuz niyatning mavjudligi;
b) aql va bilimning etarli emasligi.
87. Odatda uyquga ketishdan oldin o'rinda uzoq yotasizmi?
88. Siz qanday o'qituvchiga ega bo'lishni afzal ko'rasiz?
a) siz hohlaganday ishlashga ruxsat beradigan;
b) sizga doimo maslahatlar va ko'rsatmalar berib turadigan.
89. Siz odatda munozarada gapirishingiz kerakligiga ishonch hosil qilganingizdagina so'z olasizmi?
90. Uzoq vaqt davomida dam olishga ehtiyoj sezmasdan aqliy va jismoniy mehnat qila olasizmi?
91. Kechani:
a) kompaniyada;
b) sevimli mashg'ulot bilan o'tkazishni afzal ko'rasizmi.
92. Har birimizda kamchilik juda ko'p bo'lganligi uchun biz o'zaro bir-birimizga shafqat qilishimiz kerak deb o'ylaysizmi?
93. Atrofdagilar qachonlardir sizni mag'rur, o'ziga ishongan va faqat o'zi bilan mashg'ul, deb aytishganmi?
94. Ko'p sonli tinglovchilar oldida so'zga chiqishga qiynalasizmi?
95. Agar muhim maqsadlarga erishish yo'lida katta to'siqlarga duch kelsangiz:
a) qiyinchiliklarga qaramay o'z niyatingizda (ahdingizda) qolasizmi?
b) sharoitga ko'nikib, o'zingiz uchun boshqa maqsadlarni qidirasizmi?
96. Sizni oson tushunish mumkin, degan fikrga qo'shilasizmi?
97. Bo'sh vaqtingizda g'am tashvishlardan uzoqlashib, dam olishga osonlik bilan erishasizmi?
98. Bo'sh vaqtingizda nimani afzal ko'radingiz:
a) havaskorlik to'garagiga qatnashish va tennis bilan shug'ullanish;

- b) marka to'plash va badiiy adabiyot bilan shug'ullanish.
99. Har bir narsani boshlashdan oldin uni puxta rejasiga ahamiyat berasizmi?
100. Agar majburan bekorchilik holatida bo'lsangiz, odatda qog'oz bo'lagiga nimalarnidir chizib aylantira boshlaysizmi?

Kettel testining javoblar varag'i

Ismi-sharifi _____

Tug'ilgan yili _____

Guruhi _____

Mutaxassisligi _____

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
41	42	43	44	45	46	47	48	49	50
51	52	53	54	55	56	57	58	59	60
61	62	63	64	65	66	67	68	69	70
71	72	73	74	75	76	77	78	79	80
81	82	83	84	85	86	87	88	89	90
91	92	93	94	95	96	97	98	99	100

1. Natijalarning ishlanmasi va uning izohi

Tavsiya qilinayotgan test – bu R.B. Kettel testining qisqartirilgan variantidir. Bu test to'la hajmda olinadigan bo'lsa, unda 187 savoldan tashkil topgandir. Test 17 yoshdan etuklik yoshigacha bo'lgan odamlarni o'rganish uchun mo'ljallangan. Bizning nazarimizcha, bu metod qisqa muddat ichida shaxsni o'rganish imkonini beradi. «a» punktiga berilgan «ha» javobi 1 ball bilan, «?» javobi 0,5 ball bilan, «b» punktga berilgan «yo'q» javobi 0 ball bilan baholanadi. Ballar hisobi vertikal bo'ylab olib boriladi.

Yig'indi: 1-3 ball – taraqqiyotning past ko'rsatkichi
 4-7- ball - taraqqiyotning o'rtacha ko'rsatkichi
 8-10 ball - taraqqiyotning Yuqori ko'rsatkichi

Birinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «muloqotga moyillik».

A- 6,06 norma.

Past ko'rsatkichlar: egiluvchan emas, sovuq, loqaydlik, odamovilik, odamlarga nisbatan qog'ozlar, predmetlar bilan qiziqibroq ishlaydi, yolg'izlikda ishlashni yoqtiradi. Kompromissiv qarashlar, nuqtai nazarlar, hukmlardan qochadi. Ba'zan bu odamlar qaysarlikka yo'nalgan qahri qattiq, yaxshilikni ravo ko'rmaydigan ko'rinishga ega.

Yuqori ko'rsatkichlar: odatda ochiq ko'ngil, o'zini erkin tutadi, qarorlarni engil qabul qiladi, yorqin emotsionallik xususiyatiga ega, muloqotga ehtiyojli,

rahmdil, odamlarga diqqat-e'tiborli, tushunarli, egiluvchan. Ijtimoiy ahamiyatga molik vaziyatlarni, atrofdagilar bilan mashg'ul bo'lishni sevadi. O'z atrofiga odamlarni yig'a oladi, guruhlarga faol kira oladi. O'zining shaxsiy aloqalarida Yumshoq va faol odamlarning ismini yodda saqlaydi.

Quyidagi xususiyatlar taraqqiyotning Yuqori va past ko'rsatkichlari bo'yicha tavsif beriladi, o'rtacha ko'rsatkichi esa o'z-o'zidan tushunarli.

Ikkinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «emotsional (hissiy) barqarorlik».

S-7,47 norma.

Asabiylik.

Past ko'rsatkichlar: o'zgaruvchan, haddan tashqari egiluvchan, hayotning zaruriy talablarini bajarishdan qochadi. Asablarini charchatadi, injiq, asabiy, unda hayajonlanish, zerikish, noxushlik holati tez vujudga keladi, hamma narsa tez joniga tegadi, qoniqmaslikni his qiladi.

Barqarorlik.

Yuqori ko'rsatkichlar: emotsional etuklik, barqarorlik, hayotga realistik qarash, xotirjamlik, kayfiyatning barqarorligi, kuchli irodali, saranjom. Bu odam bir guruh odamlarini ko'tarish qobiliyatiga ega. Ba'zan bunday odamlar sharoit bilan kelishadilar, hal qilinmagan hissiy kechinmalarni bo'lishiga qaramay, o'z holatini tartibga keltira oladi va vaziyatga moslasha biladi.

Uchinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «hukmronlikka intilish».

E – 5,55 norma.

Qaror qabul qila olmaslik.

Past ko'rsatkichlar: atrofdagilar istak va maqsadlariga ko'pincha yon beradigan odam, u itoatkor va konfor hisli (bu odamning tendensiyasi atrofdagilar talabiga moslashishi va ularning fikriga mos kelishi uchun boshqa odamlar ta'siri ostida o'z xulqini o'zgartirishdir). Ko'pincha bunday odamlar o'zgalarga tobe, qo'rqqoq, ochiq ko'ngil, zarur talablarni va shartlarni qanday bajarilayotganini xavfsirab kuzatib boradi.

Yuqori ko'rsatkichlar: davogar odam, o'ziga ishonadi, fikrlashi mustaqil, qattiqqo'l, o'z qonunlarini o'zgartiradi. Deyarli har doim hukmronlikni yaxshi ko'radi, lekin rahbarlarga odatda bo'ysunmaydi.

To'rtinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «onglilik, ongsizlik».

S – 7,8 norma.

Past ko'rsatkichlar: vaqtdan foydalanib, vaziyatdan foyda izlaydi, qoidalaridan o'zini olib qochadi, burchlarni kam his qiladi. Maqsadlari o'zgaruvchan, xulqi ixtiyoriy emas, ijtimoiy-madaniy talablarni bajarish uchun kuch sarflamaydi. Guruh ta'sirida salbiy hatti-harakatlarini qilishi mumkin, lekin vaqti-vaqti bilan undagi erkinlik uning faoliyatini samarali qilishi mumkin.

Yuqori ko'rsatkichlar: vijdonli, unga ishonish mumkin, majburiyatni his qiladi, o'ziga talabchan, burch hissiga asoslanadi. Tirishqoq, javobgarlikni o'ziga oladi, ko'p narsalarni rejalashtiradi va vaqtini bekorga o'tkazmaydi. Xushchaqchaq davralarda vijdonan ishlashni ma'qul ko'radi.

Beshinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «ijtimoiy mardlik».

N – 7,65 norma.

Sustlik.

Past ko'rsatkichlar: uyatchan, o'ziga ishonmaydi, qo'rqqoq, o'zini doimo chetga oladi, odatda o'zidan ko'ngli to'lmaslikni his qiladi, sekin va qiynalib gapiradi. Shaxsiy aloqa bilan bog'liq bo'lgan kasblardan qochadi. 1-2 do'sti bo'lishini ma'qul ko'radi. Ko'pchilik bilan aloqada bo'lishni, atrofida bo'layotgan hodisalarga aralashishni ma'qul ko'rmaydi.

Mardlik.

Yuqori ko'rsatkichlar: mard, to'la erkin, ijtimoiy botir, ehtiyotkor emas, ezilmagan, muloqotga ehtiyojli, yangi narsalarni tekshirib ko'rishni yaxshi ko'radi, hissiy qo'zg'alish jonli. Uning «terisining qalinligi» uning ustidan shikoyatlarni, odamlar bilan muomala qilishdagi qiyinchiliklarni engishni, hissiy zo'riqish vaziyatini engil boshdan kechirishni taminlaydi. Detallar bilan ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lishi xavf etirof etishi mumkin. Uddaburon, o'ziga qarama-qarshi jinsga nisbatan qiziquvchan.

Oltinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «ishonuvchanlik».

U – 4,32 norma.

Yettinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «ishonch, ishonchsizlik».

O – 6,58 norma.

Ishonch.

Past ko'rsatkichlar: o'ziga qat'iy ishonadi, xotirjam, uni o'zini boshqara olmaslik holatiga olib kelish va o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotish holatiga olib kelish qiyin. Hech qayoqqa og'ishmaydi, ishga bo'lgan o'zining qobiliyatiga va o'ziga bo'lgan ishonch o'sib etgan. Harakatlaridagi munosabatlardan ta'sirlanmaydi, uning fikri guruh fikriga mos kelmagandagina ishonchsizlik holati Yuzaga kelishi mumkin.

Ishonchsizlik.

Yuqori ko'rsatkichlar: vahimada, o'zini aybdor deb aytilishi yo'nalishida va kamsitilishida bezovtalanadi. Kayfiyati yomon, oldindan noxush fikrlar va hislar vujudga kelishi ustunlik qiladi. Ko'pincha unda meni «guruh tushunmaydi» degan hissiyot mavjud bo'ladi.

Sakkizinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «tobelik, mustaqillik».

O – 5,75 norma.

Tobelik

Past ko'rsatkichlar: etakchi, o'zi tarkibga kirgan guruhga tobe uning orqasidan ergashadi, boshqa odamlar bilan birga ishlashni, qaror qabul qilishni ma'qul ko'radi, ijtimoiy ma'qullashni, zavqlanishni va ularga tobe bo'lishni yaxshi ko'radi. Guruh bilan birga bo'lishga moyil. Muloqotga unchalik ehtiyoj sezmaydi, unga ko'proq guruhning qo'llab-quvvatlashi zarurroq.

Mustaqillik.

Yuqori ko'rsatkichlar: mustaqil, o'zidan ko'ngli to'q, o'zining haxsiy qarorlarini tavsiya qiladi, tadbirkor, uddaburon. O'z yo'lini tutishga moyil, o'zining shaxsiy qarorlarini qabul qiladi, odamlar fikri bilan hisoblashmaydi, boshqalarning o'zaro munosabatlarida ustunlik qilishi shart emas. U odamlarni yoqtirmaydi, deb bo'lmaydi, faqat ularning fikriga va qo'llab-quvvatlashlariga muhtoj emas.

To'qqizinchi vertikal bo'yicha yig'indi – «o'zini o'zi nazorat qilish».

O – 5,32 norma.

Past ko'rsatkichlar: intizomsiz, o'zining shaxsiy intilishlari bilan hisoblashadi. Umumiy qabul qilingan talablarga ehtiyotkor emas, irodaviy nazoratga asoslanmaydi. Odamlarga diqqat-e'tiborli emas, o'zini etarli darajada moslashganman, deb hisoblashi mumkin.

Yuqori ko'rsatkichlar: nazoratli, o'zini Yuqori darajada nazorat qiladi. Umumiy xulq va o'zining irodaviy hissiyotlarini kuchli nazorat qilish tendensiyasi mavjud. E'tiborli, o'zini hurmat qilinishiga g'amxo'rlik namoyon qiladi. Ba'zan qaysarlikka moyil.

O'ninchi vertikal bo'yicha yig'indi – «qo'zg'aluvchanlik va zo'riqish».

Past ko'rsatkichlar: bo'shashgan, qoniqish hissi bilan bog'liq bo'lgan holda zo'riqish susaygan. Ba'zi bir vaziyatlarda haddan tashqari o'zidan qoniqish dangasalikka olib keladi. Murakkab maqsadlardan o'zini olib qochadi. Kamroq xatolarga yo'l qo'yish uchun oldiga kichik maqsadlar qo'yadi.

Yuqori ko'rsatkichlar: zo'riqqan, qo'zg'alish kuchli, me'yordan ortiq faol, sabrsizlikka moyil. U ko'pincha toliqqan. Guruhdagi birlik, etakchilik darajasini noto'g'ri baholaydi. Uning hayajonlanib kuyinishi ko'proq maqsadlarini amalga oshirilmay qolib ketishiga olib keladi.

12-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Shaxs psixodiagnostikasida proyektiv metodikalardan foydalanish

Maqsad: Proyektiv metodikalarning qo'llanilishini o'rganish

Jihoz: M. Lyusher testi

Yaxshi malumki, rang insonga xos fiziologik va psixologik Ta'sir qiladi. Bu xususiyat sanat, nafosat va ishlab chiqarish gigienasida ko'p vaqtdan buyon etiborga olinadi.

Rangga bo'lgan hissiy munosabat yoqish yoki yoqmaslikda ifodalanganligi sababli undan psixodiagnostikada ham keng foydalaniladi. G. Ayzenkning ta'kidlashicha, yorqin ranglarni ma'qul ko'ruvchi sub'ektlar, noaniq ranglarni tanlovchi kishilardan o'zlarining ko'proq faolligi bilan ajralib turishadi.

Rorshaxning ko'p sonli tajribalarida aniqlanishicha, barqaror his-tuyg'uga ega kishilar ko'k va yashil ranglarni ma'qul ko'rishadi. Kayfiyatning o'zgarishi bilan ranglarga munosabat ham o'zgaradi. Chunonchi, kulrang va qora ranglarni tanlanishi negativ-salbiy holatdan guvohlik berishi mumkin.

Lyusher testi ranglarni tanlash orqali ko'p hollarda sinalayotgan kishining biror faoliyat, kayfiyat, funksional holatga yo'nalganligini hamda shaxsning eng muhim hislatlarini aniqlashga imkon beradi deb faraz qilish mumkin. Xorij psixologlari ba'zan Lyusher testidan xodimlarni tanlashda, kasbga yo'naltirish, ishlab chiqarish jamoalariga ishga olish, etnik, gerantalogik tadqiqotlarda, umr yo'ldoshni tanlashda tavsiyalar berish maqsadida foydalanadilar. Ranglarni psixologik talqin qilishning ahamiyati ko'p ming sonli sinaluvchilarni har

tomonlama tadqiq qilish yo'li bilan aniqlangan. Bu metodikaning psixodiagnostik qiymati haqidagi fikr, nashr qilingan eksperimental malumotlar har doim ham bir xil yo'nalishda emas. Sinaluvchilarni nisbatan o'xshash hissiy holatlarda (muvaqqafiyat–mag'lubiyat) qaytadan tadqiq qilinganda har doim ham bir xil natijalar olinavermadi, biroq o'xshashlikka xos ba'zi muhim qonuniyatlar aniqlandi. Shuni ta'kidlash joizki, bu test ko'rsatkichlarining talqini anchagina murakkab bo'lib, uning ba'zi algoritmlari esa qarama–qarshidir. Ayni paytda, nazarimizda Lyusher testidan mavjud holatni o'rganishning qo'shimcha metodikasi sifatida bir kontingentni ko'p marta tadqiq qilish zarur bo'lganda foydalanish mumkin.

Lyusher testi 4 asosiy va 4 qo'shimcha ranglarni o'z ichiga oladi.

Asosiy ranglar:

1. Ko'k (xotirjamlik, qoniqish ramzi).
2. Yashil (ishonch, sabot, ba'zan qaysarlik ramzi).
3. Pushti–qizil (iroda kuchining namoyon bo'lishi, tajovuzkorlik xususiyati, qiziqish ramzi).
4. Och sariq (faollik, muloqotga intilish, ekspansivlik yoki (erkinlik) xursandchilik ramzi).

Xotirjam, yani ziddiyatdan holi bo'lgan vaziyatda asosiy ranglar ko'proq birinchi 5 tanlashdan joy olishi kerak.

Qo'shimcha ranglar: 5. Siyohrang. 6. Jigar rang. 7. qora. 8. Kulrang salbiy holatni, xavotirlik, stress, qo'rquv, nadomat va h.k. kechinmalar ramzidir.

Asosiy ranglar kabi bu ranglarning ahamiyati ham ularning tanlanish o'rnini bilan belgilanadi.

Testning mohiyati shundan iboratki, sinaluvchi (o'z–o'zini sinaydimi yoki u bilan tekshiruvchi ishlaydimi) ranglarni o'ziga ma'qul bo'lgan tartibda tanlaydi: N 1–eng ko'p yoqadigan rang, N 2 –undan kamroq yoqadigan va x.k. N 8 raqami ostida esa eng kam yoqadigan (yoki eng yomon ko'radigani). Shunday qilib, 8 ta urinish hosil qilinadi.

N 1, N 2 – eng yoqqan ranglar «==» bilan belgilanadi

N 3, N 4 – ma'qul ko'riladi «x x»

N 5, N 6 – rangga befarqlik «==»

N 7, N 8 – rang yoqmaydi «– –»

Lyusher 36 ming tadqiqot natijalari asosida tanlangan urinishlarning taxminiy tavsifini ishlab chiqqan.

1–tanlash «+», belgilangan bu tanlash maqsadga erishish usullari, vositalarini aks ettiradi. Masalan, ko'k rangning tanlanishi xotirjam, ortiqcha kuch sarflamasdan harakat qilish maqsadini anglatadi.

2–tanlash «+» bilan belilangan tanlash Lyusherning fikricha, sinaluvchi intilayotgan maqsadni bildiradi.

3–4 – «x x» bilan belgilangan tanlash sinaluvchi tushgan ichki holat (o'z–o'zini baholash)ni yoki holat majbur qilayotgan harakatlar tarzini aks ettiradi.

5–6 – «==» bilan belgilangan tanlash sinaluvchi o'zining holatini, motivlarini go'yo mazkur ranglar bilan bog'layotganligidan dalolat beradi.

7–8 – «– –» bilan belgilangan tanlash mazkur rang aks ettiruvchi qandaydir

ehtiyoj, motiv, kayfiyatdan holi bo'lishga intilishni bildiradi.

Tanlangan ranglarni yozib borish ma'qul ko'rilganlaridan boshlanadi va tanlash o'rnini ko'rsatiladi. Masalan, qizil, sariq, kulrang, yashil, siyohrang, jigarrang va qora ranglar tanlanganda quyidagicha yoziladi:

= = x x = - - -

3 4 1 0 2 5 6 7 (== ; x x ; == ; - -;) zonalar 4 funktsional guruhni tashkil qiladi. Tanlov takrorlanishi (test bajarilishi, takrorlanishi) ham mumkin, birinchi va takroriy tanlovlarda tanlangan ranglar bir xil yoki turlicha bo'lsa, u holda tanlash hisobi anchagina murakkab usul bilan amalga oshiriladi, biz bu haqda hozircha to'xtalmaymiz va yuqorida keltirilgan standart variant bilan cheklanamiz.

Test natijalarini talqin qilish.

Aytib o'tilganidek tanlov natijalari talqinining usullaridan biri asosiy ranglar o'rnini baholashdir, agar ular 5 dan keyingi o'rinlarni egallasalar, demak ular tavsiflaydigan xususiyatlar, ehtiyojlar qondirilmagan, bundan xavotirlik, salbiy holat kelib chiqadi.

Asosiy ranglarning o'zaro holatini ko'rib chiqamiz.

Agar N 1 va N 2 (ko'k va yashil) yonma-yon bo'lsa (funktsional guruh tashkil qilib), ularning umumiy tomoni sub'ektiv ichki yo'nalish qayd qilinadi.

N 2 va N 3 yashil va qizil ranglarning yonma-yon joylashuvi qarorlar qabul qilishda mustaqillik, tashabbuskorlikni bildiradi.

N 3 va N 4 (qizil va sariq) ranglarning yonma-yon bo'lishi tashqi yo'nalganlikni anglatadi.

N 1 va N 4 ranglarning (ko'k va sariq) uyg'unlashuvi sinaluvchining muhitga bog'liqligi to'g'risidagi tasavvurni kuchaytiradi.

N 1 va N 3 (ko'k va qizil) ranglar yonma-yon bo'lganda (bir funktsional guruh tashkil qilib), ko'k rang bilan tavsiflanuvchi mustaqillik, erkinlik, sub'ektiv tashqi yo'nalganligining ijobiy balansi deb ta'kidlanadi.

N 2 va N 4 (yashil va sariq) ranglarning birikmasi sub'ektiv tashqi yo'nalganlikka, o'zligiga intilishini tashqi muhitga bog'liqligiga qarshi qo'yish deb tushuniladi.

Lyusher asosiy ranglarni talqin qilishda ular quyidagi psixologik ehtiyojlar ramzidir deb hisoblaydi:

N 1 (ko'k) – qoniqishga, osoyishtalikka, muhim ijobiy bog'lanishlikka ehtiyoj.

N 2 (yashil) – o'z-o'zini tasdiqlash;

N 3 (qizil) – faol harakat qilish va muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan ehtiyoj;

N 4 (sariq) – istiqbol, ezgu umidlar va orzularga ehtiyoj.

Agar asosiy ranglar 1–5 o'rinlarda joylashgan bo'lsa, demak bu ehtiyojlar malum darajada qoniqtiriladi, yoki qoniqtirilayotgan sifatida qabul qilinadi; agar ular 6–8 o'rinlarda bo'lsa, demak qandaydir ziddiyat, tashvish, noqulay holatlar tufayli qoniqmaslikni bildiradi. Inkori qilinayotgan rangni stress manbai deb qarash mumkin. Masalan, inkor qilinayotgan ko'k rang osoyishtalik, bog'lanish yo'qligidan qoniqmaslikni bildiradi.

M. Lyusher ranglar tanlovi tahlili orqali ishchanlikni baholash

imkoniyatlarini quyidagi holatlar orqali amalga oshirishni taklif qilgan:

Yashil rang faoliyatning murakkab sharoitlarida ish qobiliyatini taminlovchi iroda kuchining harakatchanligini bildiradi.

Qizil rang ishchanlikni saqlashga yordam beruvchi iroda kuchi va maqsadga erishishga intilishdan qoniqish hissini ifodalaydi.

Sariq rang muvaffaqiyatga bo'lgan umidni, ba'zi qismlarni anglanmay, keyingi ish rejalari bo'lmagan faoliyatda ishtirok etganidan yuzaki qoniqishni aks ettiradi.

Agar bu uchchala rang qator boshida va bir joyda bo'lsa faoliyat mahsuldorligi ishchanlikning yuqoriligidan dalolatdir. Agar ular qatorning ikkinchi yarmida va bir-biridan ajralgan bo'lsa taxmin (prognoz) biroz noxushroq bo'ladi.

Tashvish ko'rsatkichlari: Agar asosiy rang 6-o'rinda turgan bo'lsa «-» shaklda belgilanadi, qolganlari (7-8 o'rindagilar) ham «-» shaklida belgilanadi. Ularni inkor qilinayotgan ranglar, tashvish, salbiy holat sababchisi deb bilish kerak.

Juft ranglarning talqini (M. Lyusher bo'yicha)

Yuqorida tavsiflangan ranglarni baholash va talqin qilish algoritmlari ularning birikmalarini talqin qilishda to'ldiriladi va aniqlashtiriladi. Turli tanlov birikmalarining talqini, aytib o'tilganidek, M. Lyusher tomonidan 36892 kishida tadqiq qilishning faktik materiali asosida amalga oshirilgan. Biroq Lyusher tomonidan talqin qilingan rang juftlari variantlarining hammasi ham universal deb qabul qilib bo'lmaydi. Chunki tekshiriluvchilar turli ijtimoiy sharoitlarda yashagan. Ular bizning xususiyatlarimizga mos kelmasligi mumkin. Bu erda faqat qator an'analarning bir-biriga mos kelganligi haqida gapirish mumkin xolos. Ranglar birikmalari tanlovining Lyusher talqinidagi namunalarini biroz moslashtirilgan ko'rinishda ko'rib chiqamiz.

«++» Birinchi rang ko'k.

+1+2 (ko'k va yashil) – qoniqish hissi, osoyishtalik, tinch muhitga intilish, ziddiyatlardan, stressdan qochish.

+1+3 (ko'k va qizil) – yaxlitlik hissi, faoliyatga to'laqonli hamohang munosabatda bo'lishga intilish.

+1+4 (ko'k va sariq) – kichikrok besaranjonlik, mustahkam aloqalarga bo'lgan hissiy va har doim ham anglanavermaydigan intilish. Boshqalar tomonidan bo'ladigan etiborga ehtiyoj.

+1+5 (ko'k va siyohrang) – biroz besaranjonlik, nozik muhitga, go'zallikka intilish.

+1+6 (ko'k va jigarrang) – xavotirlik hissi, yolg'izlikdan qo'rqish, ziddiyatlardan qochishga intilish.

+1+7 (ko'k va qora) – salbiy holat, osoyishtalikka, hordiqqa intilish, o'ziga bo'lgan munosabatdan qoniqmaslik, vaziyatga salbiy munosabat.

+1+0 (ko'k va kulrang) – salbiy holat, stressdan qutulishga intilish, oromga, hordiqqa intilish.

«++» Birinchi rang yashil.

+2+1 (yashil va ko'k) – ijobiy holat, tan olinish istagi, muvaffaqiyatni taminlovchi faoliyatga intilish.

+2+3 (yashil va qizil) – muvaffaqiyatga, faoliyatdagi to'siqlarni engib o'tishga, mustaqil qaror qabul qilishga intilish.

+2+4 (yashil va sariq) – tan olinish, mashhurlik istagi, kichik besaranjonlik, taassurot qoldirishga intilish.

+2+5 (yashil va siyohrang) – kichik besaranjomlik, tan olinish, mashhurlik istagi, qattiq taassurot qoldirishga intilish, atrofdagilarning o'z hatti–harakatlariga bo'lgan munosabatiga katta etibor.

+2+6 (yashil va jigarrang) – qoniqmaslik, charchoq hissi, atrofdagilarning o'ziga bo'lgan munosabati ahamiyatini oshirib baholash.

+2+7 (yashil va qora) – xafalik, nafrat hissi, munosabatlardagi qattiqqo'llik, mavqega intilish.

+2+0 (yashil va kul rang) – qoniqmaslik hissi, tan olinishiga intilish, taassurot qoldirishga intilish.

«++» **Birinchi rang qizil.**

+3+1 (qizil va ko'k) – ishchanlik, faoliyatga, taassurotlarga, qoniqishga faol intilish.

+3+2 (qizil va yashil) – ishchanlik maqsadga, barcha qiyinchiliklarni engib o'tishga, o'z faoliyatini yuqori baholashga faol intilish.

+3+4 (qizil va sariq) – ishchan, biroz ko'tarinki ichki holat, qiziqish, optimizm, muloqotga, faoliyati sohasini kengaytirishga intilish.

+3+5 (qizil va siyohrang) – kuchli qo'zg'aluvchanlik, adekvat bo'lavermaydigan qiziqish, taassurot qoldirishga intilish.

+3+6 (qizil va jigarrang) – salbiy kayfiyat, muvaffaqiyatsizlikdan kuyinish, qulay fursatni boy berishni istamaslik.

+3+7 (qizil va qora) – salbiy kayfiyat, jahl, noqulay holatdan chiqib ketishga intilish.

+3+0 (qizil va kulrang) – qoniqmaslik hissi, xatarli harakatga yo'nalganlik.

«++» **Birinchi rang sariq.**

+4+1 (sariq va ko'k) – umuman ijobiy kayfiyat, ijobiy hissiy holatga, o'zaro qo'llab–quvvatlashga intilish.

+4+2 (sariq va yashil) – umuman ijobiy kayfiyat, oldinda turgan vazifalarni yechish, o'zini tasdiqlash uchun to'g'ri yo'llarni qidirish istagi.

+4+3 (sariq va qizil) – bir oz ko'tarilgan ishchan ichki qo'zg'alish, keng faollikka intilish.

+4+5 (sariq va siyohrang) – bir oz hovliqish (eyforiya), yorqin voqealarga intilish, taassurot qoldirish istagi.

+4+6 (sariq va jigar rang) – salbiy kayfiyat, kuyinish va hissiy engillikka, hordiqqa ehtiyoj.

+4+7 (sariq va qora) – anchagina salbiy kayfiyat, har qanday muammodan qochish istagi, zarur, kam adekvatli qarorlarga moyillik.

+4+0 (sariq va kulrang) – salbiy og'ir kayfiyat, noxush holatdan chiqishga intilish, uni amalga oshirish to'g'risidagi noaniq tasavvur.

«++» **Birinchi rang siyohrang.**

+5+1 (siyohrang va ko'k) – noaniq kayfiyat, hamohanglikka intilish.

+5+2 (siyohrang va yashil) – hushyorlik, taassurot qoldirishga intilish.

+5+3 (siyohrang va qizil) – muayyan ichki qo'zg'alish, qiziqish, taassurot qoldirishga faol intilish.

+5+4 (siyohrang va sariq) – ichki qo'zg'alish, xayolparastlik, yorkin voqealarga intilish.

+5+6 (siyohrang va jigar rang) – ichki qo'zg'aluvchanlik, kuchli hissiy kechinmalarga yo'nalganlik.

+5+7 (siyohrang va qora) – salbiy holat.

+5+0 (siyohrang va kulrang) – taranglik, ziddiyat va stresslardan o'zini ehtiyot qilish.

«++» **Birinchi rang jigarrang.**

+6+1 (jigarrang va ko'k) – taranglik, yolg'izlikdan qo'rqish, noxush holatdan chiqish istagi.

+6+2 (jigarrang va yashil) – xavotirlik tuyg'usi, xato qilmaslik uchun o'z ustidan qattiq nazorat qilishga intilish.

+6+3 (jigarrang va qizil) – hissiy engillikka faol intilish.

+6+4 (jigarrang va sariq) – ijobiy istiqbolga bo'lgan ishonchning yo'qotilishi, o'ylanmagan qarorlar qabul qilish ehtimoli («menga baribir»).

+6+5 (jigarrang va siyohrang) – qoniqmaslik hissi, qulaylikka intilish.

+6+7 (jigarrang va qora) – salbiy holat, umidsizlanish, osoyishtalikka intilish, faollikdan qochish istagi.

+6+0 (jigarrang va kulrang) – sezilarli salbiy holat, murakkab muammolar bilan kurashmay, ulardan qochishga intilish.

«++» **Birinchi rang qora**

+7+1 (qora va ko'k) – anchagina salbiy holat, muammolardan qochishga intilish («tinch qo'yishsa edi»).

+7+2 (qora va yashil) – ichki qo'zg'alish, atrofdagilarga nafrat bilan qarash, har doim ham adekvat bo'lavermaydigan qaysarlik.

+7+3 (qora va qizil) – kuchli ichki qo'zg'alish, affektiv hatti–harakatlar ehtimoli bor.

+7+4 (qora va sariq) – anchagina salbiy holat, umidsizlik, o'z joniga qasd qilish (suisid) fikri bo'lishi mumkin.

+7+5 (qora va siyohrang) – taranglik, hamohanglik haqida orzu qilish.

+7+6 (qora va jigarrang) – ichki qo'zg'alish, real bo'lmagan vazifalarni qo'yish, tashvishli fikrlardan, noxush holatdan chiqishga intilish.

+7+0 (qora va kulrang) – umidsizlik, hukm qilinganlik hissi, qarorlarning adekvatsizligi.

«++» **Birinchi rang kulrang.**

+0+1 (kulrang va ko'k) – salbiy holat, osoyishtalik istagi.

+0+2 (kulrang va yashil) – salbiy holat, atrofdagilarning dushmanligini his qilish, muhitdan muhofaza qilinish istagi.

+0+3 (kulrang va qizil) – salbiy holat, atrofdagilarga nisbatan yuqori talabchanlik, har doim adekvat (bir xilda) bo'lmagan faollik.

+0+4 (kulrang va sariq) – salbiy holat, muammolarni echmay, ulardan qochish istagi.

+0+5 (kulrang va siyohrang) – tashvish, ehtiyotkorlik hissi, bu hissiyotni yashirishga intilish.

+0+6 (kulrang va jigarrang) – anchagina salbiy holat, barcha murakkab, qiyin narsalardan, hayajonlanishdan qochish.

+0+7 (kulrang va qora) – anchagina salbiy holat, xafa qilinganlik, ezilganlik hissi, adekvat bo'lmagan qarorlar qabul qilish ehtimoli.

«XX» Birinchi rang – ko'k.

X1X2 (ko'k va yashil) – kim tomondan qo'llangan, tan olingan bo'lsa unga xayrihohlik va uni tushunish istagi.

X1X3 (ko'k va qizil) – boshqaruvchi rolida hamkorlikka intilishi, lekin o'zaro bir–birini tushunish asosida.

X1X4 (ko'k va sariq) hamkorlikka intilish, ishonish mumkin bo'lgan kishilar guruhiga suyanishga ehtiyoj.

X1X5 (ko'k va siyohrang) – yuqori hissiyotlilik, go'zallikka va o'zi singari sherikka ehtiyoj.

X1X6 (ko'k va jigarrang) – unchalik iroda kuchi sarflamay harakat qilishga moyillik, bexavotir muhitga va osoyishta muloqotga intilish.

X1X7 (ko'k va qora) – uni tan oladigan va hurmat qiladigan kishilar bilan muloqotga intilish, boshqacha sharoitlardagi munosabatni to'xtatishga intilish.

X1X0 (ko'k va kulrang) – yuqori hissiyotlilik va hozirjavoblik, o'zicha yaqin, tushunadigan kishining qo'llashiga intilish.

«XX» Birinchi rang – yashil.

X2X1 (yashil va ko'k) – sarishtalikka, tartiblilikka (metodichnost) moyillik; o'zi bilan hamkorlik qilayotgan shaxslar tomonidan tan olinishga va tushunilishga intilish.

X2X3 (yashil va qizil) – belgilangan rejalarining bajarilishidagi muvaffaqiyatga ishonchsizlik hissi bilan uyg'unlashgan hukmronlikka moyillik.

X2X4 (yashil va sariq) – istiqbolga bo'lgan faol intilish.

X2X5 (yashil va siyohrang) – o'zi haqida yaxshi taassurot qoldirishga intilish, o'zining talablar darajasiga yon berish.

X2X6 (yashil va jigarrang) – o'zi uchun muammolardan holi, osoyishta vaziyatni yaratishga intilish.

X2X7 (yashil va qora) – xudbin maqsadlariga murosasizlik orqali erishishga

intilish.

X2X0 (yashil va kulrang) – egallab turgan mavqeiga ishonchsizlik, muhofazalanuvchi holat.

«XX» Birinchi rang – qizil.

X3X1 (qizil va yashil) – hamkorlikka, kelishmovchiliklarsiz o'zaro tushunishga intilish.

X3X2 (qizil va yashil) – sardorlikka erishish uchun tashabbuskorlikka intilish.

X3X4 (qizil va sariq) – tashqi yo'nalish, voqealar u hohlagandek rivojlanayotganini ko'rish istagi, aks holda norozilik tufayli noaniq o'ylanmagan harakatlar.

X3X5 (qizil va siyohrang) – turli hissiy jihatdan qiziqarli voqealarga ishtirok etishga tayyorgarlik, taassurotlarga intilish.

X3X6 (qizil va jigarrang) – intilishlariga ishonch, moslashish, osoyishta bexavotir sharoitga intilish.

X3X7 (qizil va qora) – muhim maqsadlarga erishishda halaqit berishyapti, to'siqlar qo'yishyapti degan fikrning mavjudligi.

X3X0 (qizil va kulrang) – impulsivlik va norozilikni namoyish qilish, xudbinlik, salbiy oqibatlar ehtimolligiga befarq munosabat.

«XX» Birinchi rang – sariq.

X4X1 (Sariq va ko'k) – tashqi Ta'sirga beriluvchan hozirjavoblik, hayrixoxni izlashga intilish.

X4X2 (Sariq va yashil) – nufuzli holatga va osoyishtalikka umid qilish.

X4X3 (Sariq va qizil) – faollik, sabrsizlik, etarli bo'lmagan qatiyatlilik.

X4X5 (Sariq va siyohrang) – boy tasavvur, Ta'sirlanuvchanlik, qiziqish paydo bo'lganda o'ta sezgirlik.

X3X6 (Sariq va jigarrang) – ishonchsizlik, bexavotirlikka intilish, (mummolar kamroq bo'lsin).

X4X7 (Sariq va qora) – uylanmagan harakatlarga olib borishi mumkin bo'lgan taranglik holatida xavfni his qilish va murakkab vaziyatdan chiqishga intilish.

X4X0 (Sariq va kulrang) – muvaffaqiyatga ishonchsizlik hissi bilan mavjud muammolar echimini qidirish.

«XX» Birinchi rang – jigarrang.

X6X1 (Jigarrang va ko'k) – xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj hissi va do'stona muloqot istagi.

X6X2 (Jigarrang va yashil) – faoliyatni amalga oshirishning qiyinchiligini

his qilish va vaziyat engillashishini istash.

X6X3 (Jigarrang va qizil) – paydo bo'lgan qiyinchiliklarni engib o'tishni istamaslik, tinchroq, osoyishtaroq holatda bo'lishni hohlash.

X6X4 (Jigarrang va sariq) – ishonchsizlik hissi, faol harakatlarsiz qulayrok vaziyatda bo'lib qolish istagi.

X6X5 (Jigarrang va siyohrang) – estetik zavqqa intilish, qo'pol taassurotlarni inkor qilish.

X6X7 (Jigarrang va qora) – jismoniy xastalikni, kuchli hissiy o'ng'aysizlikni his qilish.

X6XO (Jigarrang va kulrang) – qo'yilgan maqsadlarga erishishga bo'lgan harakatlarda ishonchsizlik, muammolardan qochish istagi.

«XX» Birinchi rang – qora.

Oldingi «==» guruhi malumotlari ziddiyatni to'ldirish nuqtai nazardan talqin qilinishi mumkin.

X7X1 (qora va ko'k) – sokinlikka va osoyishtalikka intilish, yaqin va sodiq kishisidan yupanch olishga intilish.

X7X2 (qora va yashil) – asossiz talablar va ularni zudlik bilan amalga oshirilishi istagi.

X7X3 (qora va qizil) – uning uchun muhim bo'lgan maqsad yo'liga g'ov qo'yilyapti deb hisoblaydi.

X7X4 (qora va sariq) – mavjud vaziyat xavfli va undan chiqishga intilish zarur deb tasavvur qilish. Adekvat bo'lmagan qaror qabul qilish.

X7X5 (qora va siyohrang) – yaqin kishisining hayrixoxligiga va qo'llashiga ehtiyoj.

X7X6 (qora va jigarrang) – jismoniy xastalikni, yuqori darajadagi hissiy taranglashuvni his qilish, o'zini o'zi baholashning pasayib ketishi.

X7XO (qora va kulrang) – yuzaga kelgan vaziyatdan qoniqmaslik, undan chiqish yullarini qiyinchilik bilan topish.

«XX» Birinchi rang – kulrang.

(oldingi «==» guruhi malumotlari ziddiyatni qoplash nuqtai nazaridan talqin qilinishi mumkin).

X0X1 (kulrang va ko'k) – tushkunlik hissi, o'zaro tushunuvchanlikka, bog'liqlikka noqobillik.

X0X2 (kulrang va yashil) – maqsadlarini yashirgan holda murakkab sharoitda maqsadga erishishga intilish.

X0X3 (kulrang va qizil) – maqsadga erishishning qiyinligini his qilish, xavotirlik hissi, ortiqcha qo'zg'aluvchanlik.

X0X4 (kulrang va sariq) – qoniqmaslik, vaziyatdan chiqish yo'lini topishga noqobillik hissi.

X0X5 (kulrang va siyohrang) – ishonchsizlik, ko'zlangan maqsadiga erisha olmaslikdan qo'rqish hissi.

X0X6 (kulrang va jigarrang) – ojizlik hissi, bexavotirlikka, ruhiy qo'llanishga, muammolardan qochishga intilish.

X0X7 (kulrang va qora) – yuzaga kelgan vaziyat munosabati bilan stressni his qilish, vaziyatdan qochishga intilish va tutulish (konfuz) hissi.

«==» Birinchi rang – ko'k.

=1=2 (ko'k va yashil) – qoniqmaslik hissi, qadriga etishmadi, o'zidan pastroq kishilar bilan hisoblashishga to'g'ri keladi, degan fikr.

=1=3 (ko'k va qizil) – kutilgan hamkorlikka qo'yilgan to'siqlar tufayli duch kelgan parokandalik (diskomfort) hissi.

=1=4 (ko'k va sariq) – hissiy munosabatlardagi sherigiga o'ta talabchanlik va ayni paytda muloqotga halaqit beruvchi o'z mustaqilligiga intilish.

=1=5 (ko'k va siyohrang) – o'z xudbinligi tufayli ajralib qolganlikda xafalik hissi.

=1=6 (ko'k va jigarrang) – engil aloqalarni o'rnatishga to'sqinlik qiluvchi tortinchoqlik, kirishuvchan emaslik bilan bog'liq parokandalik hissi.

=1=7 (ko'k va qora) – o'zi hohlamagan murosaga borish zarurati tufayli hissiy to'xtalish holati.

=1=0 (ko'k va kulrang) – o'z zimmasiga masuliyatni olmagan holda yaqin munosabatlarga istagi.

«==» Birinchi rang – yashil.

=2=1 (yashil va ko'k) – =1=2 ga yaqin bo'lgan talqin. qoniqmaslik hissi, qadrlashmadi, tushunishmadi, degan fikr; majburiy murosadan kuyunadi, hissiy kirishuv yo'q.

=2=3 (yashil va qizil) – frustrasiyaga yaqin holat, faol kurashga intilmaslik o'z haqqini himoya qilishga to'g'ri kelganda to'siqlardan qo'rqish.

=2=4 (yashil va sariq) – qoniqmaslik hissi, boshqalarga nisbatan unga ko'proq og'irlik tushdi degan fikr, biroq ayni paytda moslashuvchanlik va faollikni namoyish qilish.

=2=5 (yashil va siyohrang) – qoniqmaslik, xafalik hissi, qadrlashmadi, hech kim uni tushunolmaydi, hamdard bo'lolmaydi va ayni paytda moslashish kerak degan fikr mavjud.

=2=6 (yashil va jigarrang) – qiyinchiliklar oldida zaiflik hissi va ularni engib o'tmay, moslashishga intilish.

=2=7 (yashil va qora) – moslashuvga intilish, kelajakda yana ularga yana

qaytish umidida o'z talablaridan vaqtincha voz kyechish.

=2=0 (yashil va kulrang) – ishonchsizlik hissi va ayni paytda bu hisni yashirish «hammasi joyida» degan fikrga asoslanib sharoitga moslashishga intilish.

«==» **Birinchi rang – qizil.**

=3=1 (qizil va ko'k) – qoniqmaslik, yolg'izlik, hamkorlik, istakdagi hamoxanglikka erishishning qiyinligi.

=3=2 (qizil va yashil) – falokatni his qilish, o'z huquqlarini himoya qila olmaslik tufayli qoniqmaslik hissi; kelishuvchilik, moslashish istagi.

=3=4 (qizil va sariq) – maqsadga erishishga intilish, tashqi ishonch, ammo ichki ikkilanuvchanlik, yordam olishga intilish.

=3=5 (qizil va siyohrang) – tushunishmayapti, qo'llashmayapti deb xafa bo'lish, kuyunish, o'z-o'zi bilan muloqot.

=3=6 (qizil va jigarrang) – falokat va ojizlik hissi.

=3=7 (qizil va qora) – rejalarini amalga oshirishda chegaralanganlik, harakatlarda tortinish hissi, xursandchilik, ko'ngil ochishda vaqtincha cheklanish.

=3=0 (qizil va kulrang) – to'siqlarni engib o'tish imkoni yo'qligidan kuyunish, faol faoliyatdan voz kyechish, osoyishtalik istagi.

«==» **Birinchi rang – sariq.**

=4=1 (sariq va ko'k) – haddan ziyod hissiy talabchanlikdan ko'ngil sovlash hissi.

=4=2 (sariq va yashil) – maqsadga erishish yo'lida turgan qiyinchiliklardan kuyunish hissi, biroq ularga moslashuvchanlikni namoyish qilib engib o'tishga faol intilish.

=4=3 (sariq va qizil) – belgilangan rejalarining realligini ko'rsatishga sirdan urinish va ichki moslanuvchanlik hissi, yordam olish istagi.

=4=5 (sariq va siyohrang) – sirdan ishonch namoyish qilish, yordam olishni istamaslik, o'z-o'ziga yo'naltirish.

=4=6 (sariq va jigarrang) – sherik tanlashda haddan ziyod talabchanlikni namoyish qilish.

=4=7 (sariq va qora) – qaysarlik, qat'iyatlik, sherik tanlashda yuqori talabchanlik.

=4=0 (sariq va kulrang) – bajarilayotgan faoliyatga hissiy kirishishga intilish, biroq sheriklarni tanlashda va ular bilan munosabatda haddan ziyod talabchanlik va o'jarlik.

«==» **Birinchi rang – siyohrang.**

=5=1 (siyohrang va ko'k) – biqizlik va o'jarlik tufayli yolg'izlik hissi.

=5=2 (siyohrang va yashil) – qoniqmaslik, yolg'izlik hissi, qadrlashmayapti,

tushunishmayapti degan fikr; xafalik, ayni paytda real sharoitlardan foydalanish va unda o'rin egallash istagi.

=5=3 (siyohrang va qizil) – to'g'ri tushunishlari va baholashlariga intilish, biroq bunda biqlik tufayli yolg'izlik hissi.

=5=4 (siyohrang va sariq) – sirdan ishonch namoyon bo'lsada, ichki ikkilanish tuyg'usi, qo'llashga va tan olishga ehtiyoj.

=5=6 (siyohrang va jigarrang) – biqlik bilan bog'liq bo'lgan voqeani hissiy baholashdagi loqaydlik.

=5=7 (siyohrang va qora) – intim hissiy munosabatlarda ehtiyotkorlik va biqlikning namoyon bo'lishi.

=5=0 (siyohrang va kulrang) – xafalik hissi, biroq ochiq ziddiyat va hissiy yolg'izlikdan qochishga intilish.

«==» Birinchi rang – jigarrang.

=6=1 (jigarrang va ko'k) – «ichimdagini top» qabilida, ammo boshqa jinsdagilar bilan aloqadan qochmaydi.

=6=2 (jigarrang va yashil) – o'z imkoniyatlarini cheklanmaganligini tushunish va mavjud sharoitdan iloji boricha to'raligicha foydalanishga intilish, boshqa jinsdagilar bilan aloqadan qochmaydi.

=6=3 (jigarrang va qizil) – o'zi hayotini yaxshi tashkil qila olmaganligini va omadsizligini tushunish, yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketishga intilish, boshqa jinsdagilar bilan aloqadan qochmaydi.

=6=4 (jigarrang va sariq) – sherik tanlashdagi mezonlarga qo'yilgan talabning oshishi, realligi kam bo'lgan maqsadlarga va boshqa jinsdagi kishilarga bo'lgan munosabatlarga intilish.

=6=5 (jigarrang va siyohrang) – biqlik tufayli xafalik hissi, boshqa jinsdagilar bilan aloqadan qochmaydi.

=6=7 (jigarrang va qora) – kelishuvchanlik, boshqa jinsdagilar bilan aloqaga moyillik.

=6=0 (jigarrang va kulrang) – ziddiyatdan holi bo'lgan muayyan holatga hissiy kirishishga intilish, boshqa jinsdagilar bilan aloqaga moyillik.

«==» Birinchi rang – qora.

=7=1 (qora va ko'k) – hissiy tormozlanish, to'siqlarni engib o'tishda zaiflik hissi, yon berishga tayyorlik.

=7=2 (qora va yashil) – istakni qondirish yo'lida to'siqlarni mavjudligi, ulardan vaqtincha voz kyechishga zarurat.

=7=3 (qora va qizil) – sharoit harakatlarni chegaralayapti.

=7=4 (qora va sariq) – tanlangan maqsadlarning realligini tasdiqlashda qattiq o'jarlik va kelishuvga majbur qiluvchi vaziyatlar bo'lishi mumkinligiga qaramay

ularni egallashga intilish.

=7=5 (qora va siyohrang) – ichki ikkilanishlar mavjud bo'la turib, hissiy munosabatlarga kirishish.

=7=6 (qora va jigarrang) – sharoit bilan hisoblashish va kelishuvchanlik zarurati, boshqa jinsga qiziqish.

=7=0 (qora va kulrang) – yordam va hamdardlikni yo'qotmaslik uchun murosaga kelish zaruratini anglash.

«==» **Birinchi rang – kulrang**

=0=1 (kulrang va ko'k) – talablar darajasining yuqoriligi sababli atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlardan qoniqmaslik.

=0=2 (kulrang va yashil) – yuqoridagi ranglar joylashuvi singari hislar, sharoit bilan kelishish kerak degan fikrlar mavjudligi.

=0=3 (kulrang va qizil) – apatiya (kayfiyati tushgan) va tashvish, o'z kuchiga ishonmaslik, ziddiyatdan qochishga intilish.

=0=4 (kulrang va sariq) – boshqalarga yuqori talabchanlik, aybdor sanash ayni paytda ziddiyatdan qochishga intilish.

=0=5 (kulrang va siyohrang) – o'zining yolg'izligi tufayli xafalik hissi.

=0=6 (kulrang va jigarrang) – hissiy aloqaga intilish, o'zga jinsga mayl.

=0=7 (kulrang va qora) – boshqalarning yordamini yo'qotmaslik uchun vaqtinchalik kelishuvga borish zaruratini anglash.

«- -» **Birinchi rang – ko'k.**

-1-2 (ko'k va yashil) – qattiq zo'riqish, salbiy stress holatidan qutulishga intilish.

-1-3 (ko'k va qizil) – qattiq qo'zg'olish, ojizlik hissi, hissiy holatdan chiqish istagi.

-1-4 (ko'k va sariq) – stressga yaqin holat, salbiy hissiy kechinmalar, ojizlik hissi.

1-5– (ko'k va siyohrang) – stressga yaqin holat, o'zaro munosabatlarning murakkabligi, imkoniyatlarda cheklanganlik hissi, sabrsizlik.

1-6– (ko'k va jigarrang) – hissiy qoniqmaslik, o'zini-o'zi oqlash, yordam izlash.

1-7– (ko'k va qora) – stressga yaqin holat, hissiy qoniqmaslik, psixogen holatdan chiqishga intilish.

1-0– (ko'k va kulrang) – birmuncha ezilgan holat, tashvish, kelajagiga umid bilan qaramaslik.

«- -» **Birinchi rang – yashil.**

-2-1– (yashil va ko'k) – ezilgan holat, o'z kuchiga ishonmaslik, noxush

vaziyatdan qochishga intilish.

2–3– (yashil va qizil) – kuchli ichki qo'zg'olish, og'ir kechinmalar, muhit bilan munosabatlarni o'zi uchun xatarli deb hisoblaydi, affektiv harakatlarni sodir etishi mumkin.

2–4– (yashil va sariq) – o'z kuchiga ishonmaslikka yaqin holat, ko'ngli sovish, ikkilanish hissi.

2–5– (yashil va siyohrang) – stressga yaqin holat, g'ururi kamsitilganlik hissi, o'z kuchiga ishonmaslik.

2–6– (yashil va jigarrang) – stressga yaqin holat, adekvat bo'lmagan o'z-o'zini nazorat qilishning oshib ketishi, tan olinishga asossiz intilish.

2–7– (yashil va qora) – shaxsiy talablarning chegaralanganligi tufayli qayg'urish holati, maqsadga intilishning zaifligi.

2–0– (yashil va kulrang) – qayg'urish holati, qator muvaffaqiyatsizliklardan asabiylashish, irodani pasayishi.

«– –» Birinchi rang – qizil.

–3–1– (qizil va ko'k) – qo'zg'olishni bosib turish, asabiylashish, besabrlilik, yaqin kishilari bilan yuzaga kelgan salbiy munosabatlardan qutulishni izlash.

–3–2– (qizil va yashil) – adekvat bo'lmagan o'z-o'zini baholash tufayli stress holati.

–3–4– (qizil va sariq) – gumonsirash, xavotirlik, muhitni noto'g'ri baholash, o'zini oqlashga intilish.

–3–5– (qizil va siyohrang) – o'zaro tushunishga bo'lgan muvaffaqiyatsiz harakatlar tufayli stress holati, ishonchsizlik, ojizlik hissi, hamdard topish istagi.

–3–6– (qizil va jigarrang) – bazan hirsiy cheklanish tufayli yuzaga keladigan qattiq taranglik, do'stona munosabatlarning yo'qligi, o'z kuchiga ishonmaslik.

–3–7– (qizil va qora) – ko'ngli qattiq soviganligi sababli stress holati, kuyunish, xavotirlik hissi, ziddiyatli muammoni yechishga ojizlik, har qanday yo'l bilan kuyunish holatidan chiqish istagi, ammo buni amalga oshirilishiga gumon qilish.

–3–0– (qizil va kulrang) – qo'zg'alishni to'xtatib turish, asabiy zo'riqish ehtimoli bor, kelajagimni boy berdim, deb hisoblash.

«– –» Birinchi rang – sariq.

–4–1– (sariq va ko'k) – ko'ngil sovish hissi, stressga yaqin holat, salbiy hissiyotlarni yo'qotishga intilish.

–4–2– (sariq va yashil) – ikkilanish, xavotirlik, ko'ngil sovish holati.

–4–3– (sariq va qizil) – ichki qo'zg'alish bilan bog'liq bo'lgan stress holati, muvaffaqiyatga ishonchsizlik, real imkoniyatlar bilan tasdiqlanmaydigan talablar,

o'zini oqlash.

–4–5– (sariq va siyohrang) – hissiy hafsalasizlik va boshqalarga ishonchsizlik hissi, yolg'izlik.

–4–6– (sariq va jigarrang) – notinchlik, xavotirlik, hafsalasizlik hissini yashirishga intilish tufayli vujudga kelgan stress holati.

–4–7– (sariq va qora) – taranglik, ishonchsizlik, ehtiyotkorlik, tashqaridan bo'ladigan nazoratdan qochishga intilish.

–4–0– (sariq va kulrang) – taranglik, qandaydir muhim imkoniyatni boy berishdan qo'rqish hissi, qattiq kutish.

«– →» **Birinchi rang – siyohrang.**

–5–1– (siyohrang va ko'k) – faollikni rag'batlantiruvchi qoniqmaslik hissi, hamkorlikka intilish.

–5–2– (siyohrang va yashil) – o'zini tasdiqlay olmaganligi uchun stress holati.

–5–3– (siyohrang va qizil) – faol, ba'zan o'ylanmagan harakatlar tufayli stress holati.

–5–4– (siyohrang va sariq) – ehtiyotkorlik, gumonsirash, ko'ngil sovish, biqizlik.

–5–6– (siyohrang va jigarrang) – istakdagi o'zaro munosabatlarning buzilishi tufayli stress holati, boshqalarga talabchanlik.

–5–7– (siyohrang va qora) – mustaqil qarorlar qabul qilishda cheklanganlik sababli taranglik, o'zaro tushunishga, ochiq fikrlashga intilish.

–5–0– (siyohrang va kulrang) – sabrsizlikni namoyon qilish, ayni paytda o'zini nazorat qilishga intilish, bu esa ba'zi hissiy qo'zg'alishlarni yuzaga keltiradi.

«– →» **Birinchi rang – jigarrang.**

–6–1– (jigarrang va yashil) – salbiy holat, xizmatlari etarlicha tan olinmaganligi uchun qoniqmaslik hissi, o'zini cheklashga va nazorat qilishga intilish.

–6–2– (jigarrang va ko'k) – haddan ziyod o'zini nazorat qilish oqibatidagi salbiy holat, yaxshi tomonga o'tishni astoydil hohlash, ammo amalga oshirilishiga ishonmaslik.

–6–3– (jigarrang va qizil) – erotik va boshqa biologik ehtiyojlarni bosib turish tufayli stress holati, stressdan chiqish uchun hamkorlikka intilish.

–6–4– (jigarrang va sariq) – ishonch va befarqlik niqobi ostida tashvishni yashirishga intilish tufayli zo'riqish.

–6–5– (jigarrang va siyohrang) – hissiy komillikka bo'lgan ehtiyojning qoniqtirilmaganligi sababli salbiy holat.

–6–7– (jigarrang va qora) – bo'ysunishdan bosh tortish, turli taqiqlarga

salbiy munosabat.

–6–0– (jigarrang va kulrang) – biologik, jinsiy ehtiyojlarni bosish tufayli vujudga kelgan stress holati.

«– →» **Birinchi rang – qora.**

–7–1– (qora va ko'k) – yordam olishga bo'lgan istakni yashirish bilan bog'liq notinchlik holati.

–7–2– (qora va yashil) – istagan harakatlarni erkin bajara olmaganligi tufayli afsuslanishga yaqin holat, halaqit berilishidan qutilishga intilish.

–7–3– (qora va qizil) – kutilayotgan holatdan hafsalasi pir bo'lishi tufayli vujudga kelgan stress holati, hissiy qo'zg'aluvchanlik.

–7–4– (qora va sariq) – bo'lg'usi muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqish tufayli vujudga kelgan stress holati, oqilona kelishuvlardan voz kyechish.

–7–5– (qora va siyohrang) – ideal holatni izlash.

–7–6– (qora va jigarrang) – noxush cheklashlar, taqiqlar tufayli stress holati, cheklashlarga qarshilik qilish, o'rtamiyonalikdan chiqish istagi.

–7–0– (qora va kulrang) – noxush holatdan qochish istagi.

«– →» **Birinchi rang kulrang.**

–0–1– (kulrang va ko'k) – muayyan asabiylik, salbiy hislarga qarshi turish.

–0–2– (kulrang va yashil) – charchaganlik oqibatida salbiy holat.

–0–3– (kulrang va qizil) – xavotirlanishni bosib turish, ongsiz harakatlar ehtimoli, asabiylashish.

–0–4– (kulrang va sariq) – xavotirlik, ishonchsizlik hissi.

–0–5– (kulrang va siyohrang) – hissiy kechinmalarni bosib turish tufayli taranglik.

–0–6– (kulrang va jigarrang) – noxush vaziyatdan chiqishga intilish, o'zini biroz yuqori baholash.

–0–7– (kulrang va qora) – noxush vaziyatdan chiqishga intilish, yaxshi kelajakka umid.

13-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: “Mavjud bo'lmagan hayvon” metodikasi

Maqsad: Proyektiv metodikalarning qo'llanilishini o'rganish

Jihoz: «Mavjud bo'lmagan hayvon» metodikasini sharhlash usuli

«Mavjud bo'lmagan hayvon» metodikasi o'z mazmuniga ko'ra Proyektiv metodikalar qatoriga kiradi. Uning yordamida shaxsning muayyan xususiyatlari va psixik holatlari haqida ma'lumot to'plash mumkin. Metodika yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'lganligi sababli, u tadqiqot batareyasiga kiruvchi metodikalardan biri sifatida qo'llaniladi. Metodika yordamida:

- o'z-o'ziga baho berish xususiyati;
- tekshiriluvchining o'z holatidan qoniqmasligi, atrofdagilar tomonidan etarlicha tan olinmaslik;
- o'ziga ishonmaslik, qo'rqinch, jur'atsizlik kabi sifatlar;
- insonning faoliyatga yo'nalganligi;
- fikrlash xususiyatlari;
- egotsentrizm;
- shaxsning agressivligi;
- xavotirlanish va himoya reaksiyalari;
- shaxsning ijodiy imkoniyatlari kabi jihatlari o'rganish mumkin.

Metodika universal xarakterga ega. Uni turli yoshdagi, turli rivojlanish darajasiga ega bo'lgan sinaluvchilarda o'gkazish mumkin. Bu erda eng muhimi tadqiqotchi tomonidan rasm va uning detallarini to'g'ri tavsiflashdir. Metodikani o'tkazish uchun oq yoki sarg'ish (silliqlik bo'lmagan) qog'oz va o'rtacha yumshoqlikdagi qora qalam kerak bo'ladi. Rangli qalamlar, ruchka, flomaster, o'chirg'ichdan foydalanish mumkin emas.

Ko'rsatma: «Mavjud bo'lmagan hayvonni o'ylab topib, uning rasmini chizing va nom qo'ying». Metodikani individual tarzda o'tkazish tavsiya qilinadi. Uni o'tkazish davomiyligi chegaralanmagan.

Rasm elementlari va ularning tasniflanishi

Normada rasm vertikal qo'yilgan varaqning o'rtasida joylashgan bo'ladi. Agar rasm varaqning yuqori chekkasiga yaqin holatda bo'lsa, bu o'ziga yuqori baho berish, jamiyatda egallagan mavqeidan norozilik, atrofdagilar tomonidan etarlicha tan olinmaslik; lavozimga ko'tarilish va tan olinishga nisbatan e'tiroz; uz-o'zini tasdiqlashga intilish belgisi hisoblanadi.

Agar rasm varaqning quyi qismida joylashgan bo'lsa, buni o'ziga nisbatan ishonchsizlik, o'ziga past baho berish, qat'iyatsizlik, tushkunlik sifatida; jamoada biror mavqeni egallashga intilmaslik; tan olinish hamda o'z-o'zini e'tirof etish mavjud emasligi sifatida baholash mumkin.

Figuraning markaziy qismi tahlili

(bosh yoki uning o'rnini bosuvchi qism)

Agar bosh o'ngga qaragan bo'lsa, faoliyatga bo'lgan barqaror intilish, harakatchanlikni bildiradi. Bunda rejalashtirilgan, o'ylangan barcha fikrlar amalga oshiriladi yoki garchi oxirigacha etkazilmasada uni amalga oshirishga kirishiladi.

Bosh chap tarafga qaratib chizilgan bo'lsa, refleksiya, o'zini boshqalar qanday idrok qilishlari haqida o'ylash, fikrlashga moyillik. Bunday sinaluvchilar harakat kishilari emas, ular o'ylaganlarining bir qisminigina amalga oshiradilar. Ba'zida bu shaxsning faol harakat qilishdan cho'chishi, qat'iyatsizlik sifatida qaraladi (biroq buni boshqa yo'llar orqali tekshirish lozim).

«Anfas» holati, yani bosh rasm chizayotgan shaxs tomonga qarata chizilgan bulsa, bu holat egotsentrizm sifatida talqin etiladi.

Agar bosh qismida sezgi organlariga mos detallar aks ettirilsa, ya'ni quloq, og'iz, ko'z – bular axborot olishga qiziquvchanlik, atrofdagilarning o'zi haqidagi fikrlariga ahamiyat berishlik, deb qaraladi.

Qisman ochiq og'iz til bilan uyg'unlashgan holda, biroq lablar aniq chizilmagan holda tasvirlansa, kuchli nutqiy faollik (haddan ziyod ko'p gapirish) sifatida, lablar aniq chizilsa, sezgirlik sifatida baholanadi.

Til va lablarsiz, ayniqsa qattiq botirib chizilgan ochiq og'iz qo'rqinch va tashvish, ishonchsizlikning oson yuzaga kelishidan; tishlar bilan tasvirlangan og'iz – verbal agressiya, ko'pchilik hollarda himoyaviy agressiya (shaxsga qaratilgan salbiy murojaatga nisbatan qo'pollik qilish, g'ijinish, so'kinish kabilar)dan darak beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bolalar va o'smirlar uchun og'izni dumaloq shaklda tasvirlash xosdir. Bu esa sinaluvchidagi qo'rqinch va xavotirlanish holatlarini bildiradi.

Rasmda tasvirlangan ko'zlarga alohida ahamiyat berish zarur. Agar ko'z qorachig'i alohida urg'u bilan chizilsa – bu insonga xos bulgan qo'rquv kechinmasining belgisi sanaladi. Bunda kipriklarning bor yoki yo'qligiga ham ahamiyat berish zarur. Kinriklar xulq-atvorning namoyishkorona – jazava usuli.

Erkaklar rasmlarida kipriklar tasvirlansa, ularda ayollar xarakteriga xos sifatlar mavjudligidan darakdir. Shuningdek, kipriklar sinaluvchining atrofdagilarni o'z tashqi chiroyi, kiyinish uslubi bilan lol qoldirishga intilishi, bu jihatlarga katta e'tibor bilan qarashini bildiradi.

Agar rasmning bosh qismi butun figura o'lchamiga nisbatan katga bo'lsa, sinaluvchi o'zidagi va atrofdagi kishilardagi fikrlash, eruditsiyani qadrlashidan darak beradi.

Ba'zi hollarda boshda qo'shimcha detallar, masalan, shox tasvirlanishi mumkin. Shoxlar – himoya va agressiya timsoli bo'lib, boshqa belgilar (tirnoq, dagal jun, igna) bilab birgalikda tasvirlansa, tajovuzkor xarakter, spontan oki himoyaviy agressiya ekanligini bildiradi. Hayvondagi patlar o'zini bezab ko'rsatish, o'zini oqlash, namoyish qilishga moyillik bo'lsa, yol, jun va shunga o'xshash soch turmaklari – hissiyot, o'z jinsini ta'kidlash, o'zining seksual rolga e'tiborni qaratish belgisi hisoblanadi.

Figuraning tayanch qismlari tahlili

(oyoqlar, panja, ba'zida postament)

Bunda asosiy e'tibor bu qismning butun figura va shakl o'lchamlari nisbatiga, oyoq qismining tana bilan qanday birlashishiga, oyoqlar hamda panjalarning qaysi tomonga yo'naltirilganligiga qaratilishi zarur. Agar oyoqlar tana bilan aniq, puxta biriktirilsa, bu qaror qabul qilishning asosiligi, o'ylanganligi, ratsionallik belgisi; agar birlashtirish pala-nartish zaif bo'lsa, yoki umuman birlashmagan bo'lsa yoki oyoq, asos umuman bo'lmasa – bu yuzaki fikrlash, xulosa chiqarishga engil-elpi qarash, ba'zida qaror qabul qilishning impulsivligidan darak beradi. Oyoq, panja shakllarining bir xilligi va bir tomonga yo'nalganligi – qaror qabul qilishning konformligi (mustaqil emasligi), oddiyligi, standartligi hisoblanadi. Bu detallarning shakli va holatidagi har xillik, aksincha, fikr va ustanovkalarining o'ziga xosligi, mustaqilligi, ba'zida ijodiylik belgisi.

Figuraniig yuqorisida joylashgan qismlar tahlili. Soch, bantik Qanotlar, qisqichlar, pat, jishalak kabilar -o'z_iga ishonch, qnziquvchanlik, atrofdagilarning ishlarida iloji boricha ko'proq iiggirok etish o'z faoliyatiga bsrilib ketish belgisi.

Bezакchi detallar namoyishkorlik, atrofdagilar egiborini uziga qaratishga moyillikdai darak beradi.

Dumlar sinaluvchining o'z xatti-harakati, qaror va xulosalariga munosabatini bildiradi.

Agar dum qog'ozda o'ngga qarata chizilsa, bu sinaluvchining o'z harakati va hulq-atvoriga munosabat, chapga qaragan bo'lsa, bu o'z fikr, qarorlari, boy berilgan imkoniyatlariga, qat'iyatsizligiga munosabatni aks ettiradi. Bu munosabatning ijobiy yoki salbiy xarakteri dumning yuqoriga (ishonch va tetiklik) yoki pastga (o'zidan qoniqmaslik, o'zining haqligidan shubhalanish, aytgan gaplari, qilgan ishlaridan afsuslanish) qaratilishida ifodalanadi. Bunda bir necha, ba'zan takrorlanuvchi buginlardan tashkil topuvchi, ayniqsa haddan ziyod qalin, uzun va tarvaqaylab ketgan dumga e'tibor berish lozim.

Figura konturlari. Bo'rtib chiqishlar (arqon, igna tipidagi), kontur chiziqlarining bosib, qalin chizilishi mavjudligi yoki yo'qligiga qarab tahlil qilinadi. u atrofdagilardan himoyalaniш belgisi hisoblanadi. Agar bo'rtib chiqishlar o'tkir burchaklar bilan bajarilsa – tajovuzkor himoya; agar kontur chizigi «bo'yab», qora qilib chizilsa – qurqinch va tashvishlanish; agar qalqon qo'yilsa va chiziqlar ikkitadan bulsa – (xavotirlanish) cho'chish va shubhalanish sifatida tahlil qilinadi. Fazoviy joylashuviga qarab bunday himoyaning yo'nalishi aniqlanadi: figuraing yuqori konturi – o'ziga nisbatan yoshi kattalar, ota-onalar, o'qituvchilar, boshliqlar, rahbarlar, ya'ni ta'qiq, zo'rliklarni amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan; pastki kontur – o'zidan yosh jihatdan kichkinalar, qo'l ostidagilarning masxaralashi, qabul qilmaslik, ular o'rtasida obro'sining yo'qligi; yon tarafdagi konturlar – aniq bo'lmagan xavotir, har qanday vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavfga nisbatan o'zini himoya qilishga tayyorlik deb baholanadi. Agar «himoya» elementlari kontur ichida joylashsa, yani chizilgan hayvon korpusida bo'lsa va ular o'sha tarafga yaqin tursa, bu real faoliyat jarayonidagi hamda chap tarafda bulsa ko'proq o'z fikr, e'tiqod didiga nisbatan himoya sifatida talqin qilinadi.

Umumiy energiya. Umumiy energiyani baholash o'ylab topilgan hayvon haqida tasavvur hosil qilish uchun ishlatilgan detallar, tana, bosh, dum, qanot miqdoriga qarab amalga oshiriladi. Tarkibiy qismlar va elementlar (eng zarurlaridan tashqari) qanchalik ko'p bo'lsa, energiya shunchalik ko'p hisoblanadi. Lekin buning aksi bo'lsa, bu energiyani tejash, organizmning astenikligini, o'tkir somatik kasalliklardan dalolat beradi. Bu belgilarni chiziq xarakteri – zaif-to'rsimon chiziqlar, qalamni bosmasdan, qog'oz ustida shunchaki yurgizish orqali tasdiqlashi mumkin.

Chiziqlar qalin va bosib chizilgan bo'lsa, bu energiya tarzida emas, balki havotirlanish sifatida baholanadi. Bunda ayniqsa, qattiq bosib chizilgan, hattoki varaqning orqa tarafidan ko'rinib turgan chiziqlarga e'tibor qaratilishi lozim. Bu, ya'ni rasm chizayotgan qo'l muskullarining yuqori tonusi – kuchli xavotirlanishdan darak beradi. Shu bilan birga rasmdagi qaysi detal, qaysi timsol shunday aks ettirilganligiga diqqat qilish zarur, chunki ular yordamida xavotirlanish nima bilan bog'langanligini aniqlash mumkin.

Mazmuni va mavzusi jihatidan hayvonlar xavf soluvchi, neytral turlarga ajratilishi mumkin (masalan arslon, begemot, bo'ri yoki qushlar, chumoli va olmaxon, it, mushuk kabilar) bu holda chizilgan hayvonlar rasmi – rasm chizayotgan shaxs namoyondasi; o'zini rasmdagi hayvon bilan identifikatsiyalash; o'z shaxsi va «Men»iga munosabat, o'zining mavqei haqidagi tasavvurlar sifatida baholanadi.

Insonga o'xshatib chizilgan ikki oyoq, odamlarga o'xshatib kiyintirish, – hayvon yuzi odamnikiga o'xshash qilib, oyoq yoki panja qo'l sifatida tasvirlansa – bu infantillik, emotsional jihatdan etuk emaslikdan dalolatdir.

Agressivlik darajasi – rasmdagi burchaklar xarakteri, miqdori va joylashuvi orqali ifodalanadi. Bunda burchaklarning tasvirdagi boshqa detallar bilan aloqasi ahamiyatli emas. Ayniqsa – tirnoq, tish, tumshuq kabi agressiya timsollariga e'tibor qaratish zarur. Shuningdek seksual belgilar, ayniqsa, insonga o'xshash figuradagi ko'krak, elin va shunga o'xshash elementlarga e'tibor berish lozimki, ular insonning jinsga nisbatan munosabatini bildiradi. Aylana figurasi (ayniqsa ichi bo'sh) ichki dunyoning sirliligi, yopiqligi, odamovilik, atrofdagilarga o'zi haqida ma'lumot berishni istamaslikni ifodalaydi. Bunaqa rasm odatda tahlil qilish uchun etarli ma'lumot bera olmaydi. Shu bilan birga «hayvon» tanasiga mexanik qismlar o'rnatilishiga ham e'tibor berish talab qilinadi. Masalan, hayvon oyoqlari o'rniga traktor yoki tank zanjirini chizish, 3 ta oyoq; bosh qismiga vint, ko'z o'rniga elektr lampochkasi, tanaga turli klavish, antennalar o'rnatish ko'proq shizofreniya bilan kasallanganlarda kuzatiladi.

Insonning ijodiy imkoniyatlari odatda figuradagi elementlarning o'ziga xosligi, uning murakkab tuzilishda egaligi bilan belgilanadi. «Tayyor», mavjud hayvonlarning elementlaridan tashkil topgan rasm, masalan, qanotli mushuk, patli baliq, panjali it – ijodiylikning mavjud emasligi sifatida talqin qilinadi. Figurani qurishda tayyor qismlardan emas, balki turli elementlardan foydalanish originallik ifodasidir.

14-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

Mavzu: Shaxslararo munosabatlar psixodagnostikasi

Maqsad: Guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish

Jihoz: Sotsiometriya metodi, javoblar varag'i.

Bir partada o'tirish uchun o'rtoq tanlash metodi. Tekshirish muvaffaqiyatli o'tishi uchun osoyishta, ishchan sharoit zarur. O'qituvchi o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan topshiriqni aniq tushuntiradi.

Bolalar, kelgusi chorakdan sizlarni - partalarga o'z xohishlaringiz bilan o'tirgizmoqchiman. Xozir bir varaq olib, birinchi navbatda birga o'tirishni xohlagan sinfdoshingizning familiyasini yozing, bordi-yu biz sizni o'zingiz tanlagan o'quvchi bilan o'tirg'iza olmasak, u vaqtda yana kim bilan o'tirishni istadingiz, o'sha sinfdoshingizning familiyasini yozing. Basharti birinchisi bilan ham, ikkinchisi bilan ham o'tirg'izishning iloji bo'lmay qolsa, u vaqtda qaysi sinfdoshingiz bilan o'tirgan bo'lardingiz, shuning familiyasini yozing.

10—15 minutdan so'ng pedagog o'quvchilar imzosi qo'yilgan varaqlarni

yig'ishtirib oladi. Agar o'quvchi do'st tanlashni istamagan bo'lsa, varaqda faqat o'z familiyasini ko'rsatib qo'yadi. Olingan ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun bu ishni bir necha marta takrorlash kerak. Takroriy tekshiruv sun'iy bo'lib qolmasligi uchun uni boshqacharoq formada, masalan, savol-javob tarzida og'zaki o'tkazsa ham bo'ladi.

Sen tanaffusda ko'proq kim bilan o'ynashni istatarding (birinchi, ikkinchi, uchinchi navbatda)?

Uy vazifasini kim bilan birga bajarishni xohlarding (birinchi, ikkinchi, uchinchi navbatda)?

Tug'ilgan kuningga sinfdoshlaringdan qaysi birini taklif qilar eding (birinchi, ikkinchi, uchinchi navbatda)?

4. Senga sinfda hammadan ko'ra ko'proq kim yoqadi?

Topshiriqning bajarilishi. Birgalikda harakat qilish uchun o'rtoq tanlash metodi. Boshlang'ich sinflar uchun bu usulning o'ziga xos varianti bor bo'lib, uni «Kimda ko'p ekan?» deb yuritiladi. Buning uchun o'qituvchi har bir o'quvchi uchun uchtdan pochta orqali jo'natiladigan otkritkalar tayyorlaydi. Otkritkalarning orqa tomoniga o'quvchining ro'yxat bo'yicha nomeri yoziladi. Munosabatlarning aniqlanishi, o'qituvchining sinf bilan o'tkazgan kirish suhbatidan boshlanadi.

Bolalar, biz hozir juda qiziq bir o'yin o'tkazamiz. Sizlar o'yinni sir saqlashlaringiz kerak. Sizlar hozir parta ustiga kundaliklaringizni qo'yib, sinfdan chiqib turasizlar.

Bolalar koridorga yoki sport zalga chiqishadi. U erda bolalar bilan harakatga keltiruvchi o'yinlar o'tkaziladi. So'ng o'quvchilar birin-ketin sinfga kiritiladi. O'qituvchi bolalarning har biriga uchtdan otkritka berib:

Xohlagan uch o'quvchining kundaligiga ularni bittadan solib qo'yishing mumkin deydi. Lekin kimga otkritka solib qo'yganingni sir saqla. Hatto menga ham aytmassliging mumkin, - deydi. Kimning kundaligida ko'proq otkritka yig'ilsa, o'sha g'olib chiqqan bo'ladi. Otkritkalarni solib bo'lgan o'quvchi, o'rtoqlariga hali o'z munosabatini bildirmagan o'quvchilar bilan uchrashmasligi kerak.

Bolalardan kundaligiga otkritka tushmay o'ksinib qoladigan bo'lmasligi uchun eksperimentator ularning kundaligiga ham otkritkalar solib qo'yadi.

Bajarilgan topshiriq natijalarini ishlab chiqish. Natijalarni ishlab chiqish turli-cha, ya'ni tanlash miqdorini ishlash oddiy, oson hisoblashdan to keng statistik analizgacha bo'lishi mumkin. Buning uchun bir-birini o'zaro to'ldiradigan grafik usuli mavjud:

1. Natijalarning asosiy jadvallari.

2. Guruh differentsiyasi kartasidir.

Natijalarning asosiy jadvallari sport musobaqalarining turnir jadvallarini eslatadi. Vertikal nomerlar bo'yicha o'rganilayotgan guruh a'zolarining familiyalari yoziladi (alfavit bo'yicha oldin o'g'il bolalar, so'ng qizlar). Gorizontal chiziq bo'yicha – faqat ularning nomerlari yoziladi. Tegishli kesishmalarda 1,2,3 raqamlar bilan har bir sinaluvchi tomonidan 1,2,3 – deb tanlab olingan kishilar belgilanadi.

So'ng o'zapo tanlashni belgilashga o'tamiz. Agar o'quvchining tanlab olganlari ichida uni tanlagan o'quvchilari ham bo'lsa, bu o'quvchi bilan u o'quvchi

o'rtasida o'zaro tanlash mavjud bo'ladi. Bu o'zaro tanlash natijalarining asosiy jadvaliga doiracha bilan chizib chiqiladi. (Jadvalda shrift bilan ajratilgan.)

No	Kim tanlayapti	Kimni tanlamoqdalar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.		Tohir			1	3	2					
2.		Shuhrat	1		2			3				
3.		Botir		1			3			2		
4.		Aziz	1		2		z					
5.		Ilhom	1		3	2						
6.		Ra'no		2					1			3
7.		Shoira								1	2	3
8.		Dilorom			1			2			z	
9.		Fotima								2		3
10.		Feruza	3			2				1		

Tanlanish miqdori.

3 2 6 2 4 2 2 3 3 3

Shulardan o'zarosi.

2 2 2 2 3 1 1 1 2 0

Barcha tanlashlar qayd qilingandan so'ng, ularni jamlashga o'rgatamiz. Vertikal bo'yicha har bir o'quvchi tomonidan tanlanib olinganlarning miqdori va o'quvchilarning o'zaro tanlanishlarining miqdori hisoblab chiqiladi.

Har bir o'quvchining holatini aniqroq tasavvur etish maqsadida, shu jadvalga asoslanib, guruh differentsiyasi deb ataladigan karta tuziladi. U qalqonga o'xshagan bo'lib, birining ichiga ikkinchisi joylashtirilgan to'rtta aylanadan iboratdir. Har bir aylana o'tkazilgan tekshirishning natijalariga ko'ra o'quvchining holatini aniqlab beradi.

Birinchi aylanaga 6 va undan ko'p marta tanlanganlar joylashtiriladi, ikkinchi aylanaga 3—5 marta, uchinchi aylanaga 1—2 marta va turtinchi aylanaga biror marta ham tanlanmagan o'quvchilar joylashtiriladi. Shunday qilib, birinchi va ikkinchi aylanaga joylashgan o'quvchilar sinfda yuqori mavqeni egallaydilar, uchinchi va to'rtinchi aylanaga joylashganlar esa, bundayroq mavqega ega bo'ladilar.

Guruh differentsiyasi kartasida o'g'il bolalar uchburchaklar bilan, qizlar esa doirachalar bilan belgilangan. Guruhning faol a'zolarini ko'rsatuvchi uchburchak va doirachalar rangli *qalam* bilan bo'yab qo'yiladi.

Guruh differentsiyasi kartasi ikki tekshirishda takrorlangan tanlashlar orasidagina barqaror qilib tuziladi. Uni kartada xilma-xil chiziqlar ko'rinishida ifodalanadi. Mustahkam o'zaro tanlash (yoki barqapop o'zaro yoqtirish) bu shunday narsaki, unda bolalar ikki tekshirishda ham bir-birlarini tanlaydilar. Bu narsa kartada tutash chiziqlar shaklida ifodalanadi. Barqaror tanlashda bolalar doimo bir-birlarini tanlaydilar, ammo o'zaro yoqtirishlik doimo bir xil bo'lmaydi. U kartada shtrix chizig'i bilan ifodalanadi. Doimo tanlash ob'ekti bo'lib qolgan o'quvchilar tomoniga strelkalar yo'naltirib qo'yiladi.

Ikki yoqlamasiz, omonat holda tanlangan o'quvchilar tomonga shtrix chiziqlari yo'naltirilgan bo'ladi. Natijada har bir bolaning o'zaro munosabati to'g'risida, qisman, o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabat haqida ravshan tushuncha beradigan rasm yuzaga keladi.

Talabalar tekshirishning birinchi natijalariga yakun yasayotib, quyidagilarni aniqlashlari lozim:

1. Sinfdagi shaxslararo o'zaro munosabatining shakllanishida u yoki bu o'quvchining ma'lum bir o'rinda bo'lishini nima ta'minlaydi?
2. Ayrim bolalarning mavqei jamoaga to'la ta'sir ko'rsatiladimi?
3. Yulduz shu guruhda haqiqatan peshqadamlik qiladimi?
4. Hech kim tanlamaganlarning jamoadagi mavqeini qanday aniqlasa bo'ladi?
5. Ajralib qolgan guruhlar (kichik guruhlar) borligini qanday tushuntirish kerak?
6. Bu guruhdagi bolalarni nima birlashtiradi?
7. Bu guruhlar sinf hayotida qanday o'rin tutadilar?
8. Jamoaning rasmiy va haqiqiy tuzilishi orasidagi munosabat qanday bo'ladi?

Tekshirish natijalarini o'qituvchi va tarbiyachilarning sinf hayotini kuzatish natijalari bilan taqqoslash foydalidir. Real munosabat bilan kartaga asoslangan munosabatlar orasida tafovut bo'lishi mumkin. Shuning uchun yuqorida aytib o'tilgan usullar yordamida olingan ma'lumotlar faqat haqiqiy munosabatlar to'g'risida axborot berib qolmay, istalayotgan muloqot munosabatlar haqida ham axborot beradi. O'qituvchilarning davomli kuzatishlari olingan eksperimental natijalarga tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar ayrim hollarda o'qituvchiga ham katta yordam ko'rsatishi mumkin.

Maqsad: Kichik guruhlarfagi shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish

Jihoz: Guruhning sotsial – psixologik jihatdan o'z – o'zini jamoa sifatida attestatsiya qilish metodikasi

Mazkur metodika guruhdagi munosabatlarning rivojlanish darajasini aniqlashga mo'ljallangan. U 75 ta hukmdan iborat. Sinaluvchilar har bir hukm guruhning qancha a'zosiga ta'luqli ekanini belgilaydilar.

Ko'rsatma. «Quyida 75 ta hukm berilgan. siz har bir hukmning mazmuni bilan tanishib, so'ngra u guruhingizning qancha a'zosiga tegishli ekanligini quyida berilgan ballardan foydalanib belgilang: 0 ball – hech kim, 1 ball – deyarli hech kim, 2 ball – kamchilik, 3 ball – yarmi, 4 ball – ko'pchilik, 5 ball – deyarli barcha, 6 ball – barcha, «__» - bir narsa deyishim qiyin».

1. O'z so'zini ish bilan isbotlaydilar.
2. Xudbinlik va individualizmni qoralaydilar.
3. Qarashlari bir xil.
4. Bir – birining muvaffaqiyatiga xursand bo'ladilar.
5. Boshqa guruhlarga va o'z guruhining yangi vakillariga yordam beradilar.

1. Bir – biri bilan kelishgan, uyushgan holda ishlaydilar.
2. Guruh oldidagi vazifalarni biladilar.
3. Bir – birlariga talabchanligi yuqori.
4. Barcha masalalarni kelishib hal etadilar.
5. Guruh oldidagi muammolarni baholashda hamfikrdirlar.
6. Bir – biriga ishonadilar.
7. Boshqa guruhlar va o'z guruhining yangi vakillari bilan tajriba almashadilar.
8. Nizoga yo'l qo'ymay vazifalarni o'zaro taqsimlaydilar.
9. Guruh faoliyatining natijalarini yaxshi biladilar.
10. Hech qachon, hech narsada adashmaydilar.
11. O'z yutuq va muvaffaqiyatsizliklarini to'g'ri baholaydilar.
12. Shaxsiy manfaatlarini guruh manfaatlaridan yuqori qo'ymaydilar.
13. Umumiy xobbilar /qiziqishlar/ga egalar.
14. Bir birlarini himoya qiladilar.
15. Boshqa guruhlar va o'z guruhining yangi vakillari manfaatlari bilan hisoblashadilar.
16. Zarurat tug'ilganda guruhiy ishda bir – birining o'rniga ishlab turadilar.
17. Guruh ishining ham ijobiy, ham salbiy tomonlaridan xabardordirlar.
18. Guruh oldidagi vazifalarni bajarish uchun sidqidildan mehnat qiladilar.
19. Guruh manfaatlariga ziyon yetsa, bunga befarq qarab turmaydilar.
20. Vazifalarni o'zaro taqsimlashda tez kelishib oladilar.
21. Bir – birlariga ko'mak beradilar.
22. Nafaqat o'z guruhlariga, balki boshqa guruhlarga ham, o'z guruhining nafaqat faxriy a'zolari, balki yangi a'zolariga ham adolatli munosabatda bo'ladilar.
23. Guruh ishidagi kamchiliklarni mustaqil aniqlaydilar va bartaraf etadilar.
24. Guruh ichida o'zlarini qanday tutishni yaxshi biladilar.
25. Hech qachon, hech narsada shubhalanmaydilar.
26. Boshlagan ishlarini chala qoldirmaydilar.
27. Guruhda qabul qilingan xulq – atvor me'yorlari va qoidalarini qattiq himoya qiladilar.
28. Guruh manfaatlarini bir xilda to'g'ri baholaydilar.
29. Guruhdoshlarning muvaffaqiyatsizliklaridan samimiy qayg'uradilar.
30. O'z guruhining ham, boshqa guruhning ham, guruhdagi faxriy a'zolarining ham yangit a'zolarining yangi a'zolarining ham ishini to'g'ri baholaydilar.
31. Guruhda vujudga keladigan nizolarning oldini olishni va bartaraf etishni biladilar.
32. O'z vazifalarini va majburiyatlarini yaxshi biladilar.
33. Ongli ravishda intizomga rioya qiladilar.
34. O'z guruhiga chin dildan ishonadilar.
35. O'z guruhining muvaffaqiyatsizlarini bir xilda to'g'ri baholaydilar.
36. Bir – biriga bo'lgan munosabatda o'zlarini juda madaniyatli tutadilar.

37. Hech qachon o'z guruhlarini boshqa guruhlardan, o'z guruhidagi faxriy a'zolari yangi a'zolaridan ustun qo'ymaydilar.
38. Bir – birlari bilan tez tild topisha oladilar.
39. Guruhdagi faoliyatda o'zaro qanday munosabatda bo'lish kerakligini yaxshi biladilar.
40. Doim har narsada haqlar.
41. Shaxsiy manfaatlarini guruhning boshqa a'zolari manfaatidan ustun qo'ymaydilar.
42. Guruh uchun foydali bo'lgan tashabbuslarni faol qo'llab – quvvatlaydilar.
43. Axloq hakida o'xshash tasavvurlarga egalar.
44. Bir – birlariga do'stona munosabatda bo'ladilar.
45. Nafaqat o'z guruhlariga, balki begona guruhlariga ham, nafaqat o'z guruhidagi faxriy a'zolarga, balki yangi a'zolarga ham munosabatda o'zlarini madaniyatli tutadilar.
46. Zarurat tug'ilsa, guruhga rahbarlik qilishni o'z qo'llariga olishlari mumkin.
